

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**PUL, KREDIT
VA BANKLAR**
(Uslubiy qo'llanma)

Samarqand - 2015

Uslubiy qo'llanma "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining dosenti **D.Xolboyev** tomonidan "Pul, kredit va banklar" fanining O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus talim vazirligi tomonidan 2012 yil 14 martda tasdiqlangan Dasturi asosida tayyorlangan. Uslubiy qo'llanmada fan dasturida keltirilgan barcha mavzular bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati, ulardan foydalanish tartibi hamda amaliy mashg'ulotlarda va mustaqil tarzda bajariladigan topshiriqlar keltirilgan.

Uslubiy qo'llanma 5230100 – "Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)", 5230900 – "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanadigan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan ushbu soha mutaxassislari, o'qituvchilar, aspirantlar va magistrlar foydalanishi mumkin .

Taqrizchilar :

1. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti Shavqiyev E. Sh.
2. Samarqand qishloq xo'jalik instituti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasida dosenti Xolmurzayev M.

Uslubiy qo'llanma Samarqand qishloq xo'jalik instituti Ilmiy Kengashining 2014 yil, 29-dekabr yig'ilishida muhokama qilinib (bayonnoma № 5) chop etishga tavsiya etilgan.

**Mustaqil davlatning valyutasi
ham, Markaziy banki ham, moliya
ishlari ham mustaqil bo'lishi shart.**

I. A. Karimov

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul va pul muomalasi, kredit va kredit tizimi munosabatlari va moliya tizimini roli oshib boradi.

Pul, kredit va banklar bozor munosabatlarini olib borishning asosiy vositalaridan hisoblanib, bozor mexanizmining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy pulimiz so'm va banklar barqarorligini ta'minlash iqtisodiyotni samarali tashkil qilishning asosi hisoblanadi.

Ushbu jarayon va tushunchalar bo'yicha puxta bilimni talaba "Pul, kredit va banklar" fani dasturida ko'zda tutilgan pulning mohiyati, uni aylanishi va muomalasi, pul tizimi va pul nazariyalari, inflyatsiya va uning turlari, kreditning mohiyati va funksiyalari, kredit va kredit tizimi, banklar va bank tizimi, nobank kredit tashkilotlari, kredit tizimi va uning barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar, xalqaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari, xalqaro moliya tashkilotlari bo'yicha tushunchalarni ma'ruza darslarida oladi.

O'z navbatida talabalarni fanning yuqoridagi mavzulari bo'yicha tegishli nazariy tayyorgarlikni amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlay olish hamda mustaqil tarzda olib boradigan tayyorgarligiga bog'liq.

Bu o'z navbatida fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va mustaqil tarzda foydalanishga mo'ljallangan o'quv-uslubiy qo'llanmani mavjudligiga bog'liq.

Ushbu talabdan kelib chiqib mazkur uslubiy qo'llanma "Pul, kredit va banklar" fanining tegishli mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan va mustaqil tarzda bajariladigan topshiriqlar shaklida tayyorlandi.

Uslubiy qo'llanmada keltirilgan topshiriqlar fan dasturiga binoan amaliy mashg'ulotlar "Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)" va "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishlari uchun 38 va 36 soat, mustaqil tarzda o'zlashtirish uchun tegishli yo'nalishlar bo'yicha 61 va 72 soat hajmda mo'ljallangan.

1-mavzu: “Pul, kredit va banklar” fanining predmeti va vazifalari. Pulning mohiyati, zarurligi va funksiyalari

1.1 Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha manbalar.

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Pulni mohiyati va xususiyatlari. Pulni maxsus tovar ekanligi. Pulni qiymati va iste'mol qiymati. Pulning paydo bo'lishi. Qiymatning shakllari. Pul taraqqiyotining bosqich va shakllari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulni ahamiyatini oshishi. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida pul muomalasini tashkil etilishi. Pulning funksiyalari va ularni bog'liqligi. Pulning turlari. Qog'oz, kredit pullar va tangalar. Pulni barqarorligini ta'minlashni o'rni bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba pul va pul muomalasi bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtirishi lozim.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati:

- 1. “Pul, kredit va banklar” fanining predmeti** – mikro va makro darajadagi pul, kredit va banklar bo'yicha munosabatlar, ularga tegishli qonuniyatlar hisoblanadi.
- 2. “Pul, kredit va banklar” fanining maqsadi** – bozor iqtisodiyoti sharoitida Respublikamizda pul-kredit sohasi qonuniyatlari, uning ijtimoiy ta'kror ishlab chiqarishdagi tutgan o'rini tushunib yetishdan, pul-kredit munosabatlarini va rivojlanish yo'nalishlarini, ularni tahlil eta oladigan yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashga hissa qo'shishdan iborat.
- 3. “Pul, kredit va banklar” fanining vazifalari** – talaba fan dasturi talablaridan kelib chiqib:
 - Pul, kredit va banklarning mohiyati, zarurligi, belgilari va funksiyalarini;
 - Pul, kredit va banklar tizimini;
 - O'zbekiston Respublikasi pul, kredit va bank tizimi xususiyatlarini;
 - Pul, kredit va bank siyosatini;
 - Pul muomalasini tartibga solishning usullarini;
 - Pul, kredit siyosati tushunchasi va uni ahamiyatini;
 - Pul aylanishi va uni tuzilishini;
 - Pul islohotining zarurligi, ularni o'tkazish tartibi va shakllarini;
 - Bank tizimi va uni bo'g'inlarini;

- Pul, kredit va banklar bo'yicha boshqa tushunchalar hamda ulardagi o'zgarishlarni bilishi, ulardan foydalana olishi lozim.
- 4. **Pul** – bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo'lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o'zida aks ettiradi va tovar xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.
- 5. **Kredit** – o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh bo'lgan ayrim qiymat yoki pul mablag'larining boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish bo'yicha munosabatlar.
- 6. **Bank** – pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa vositachilik muomalalarini bajaruvchi tijorat tashkilotlari.
- 7. **Pulning qiymati (qadr qiymati)** – pul birligining xarid qilish qobiliyati, ya'ni unga qancha tovar va xizmatlar xarid etish mumkinligi tushuniladi.
- 8. **Pulning iste'mol kiymati shuki** – pul o'z funksiyasini bajarib iqtisodiyot mushkulini oson qiladi (vositachi sifatida).
- 9. **Pulni vujudga kelish jarayoni shakllari** – oddiy va tasodifiy, to'la yoki kengaygan, umumiy ekvivalent va pul shakllari.
- 10. **Pulning xususiyatlari:**
 - pulni boshqa tovarlardan ajratib turuvchi maxsus tovarligi;
 - uning umumiy ekvivalent – qolgan tovarlar qiymatini o'zida ifoda etishi;
 - pulning ekvivalent sifatida tovar, ish va xizmatlarni yaratishga ketgan mehnat va boshqa xarajatlarni o'zida ifoda etishi;
 - tovar ishlab chiqarishda kishilar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi(pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo'ladi);
 - pul ham boshqa tovarlar singari qiymatga va iste'mol qiymatiga ega ekanligi.
- 11. **Pul o'z taraqqiyotida 4 bosqich va 4 shaklga ega bo'lgan:**
 - a) Tovar shaklida - “qo'yma” asrimizdan oldingi VII - asrgacha
 - b) Tanga pullar – “tanga” asrimizdan oldingi VII-XIX - asrlar
 - c) Qog'oz pullar – “banknot” XIX-XX asrlar
 - d) Elektron pullar – “kartochka” XX - asr o'rtalaridan
- 12. **Pulni bozor iqtisodiyoti sharoitida ahamiyatini oshishi:**
 - a) Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to'lovlar, daromad va xarajatlar, moliyaviy talab va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar mikro va makro darajalarda faqat pulda ifodalanadi;
 - b) Pul va uning ekvivalentlaridan (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar) keng foydalaniladi;
 - c) Ilgari pulda ifodalanmagan vositalar ham (yer va boshqalar) pulda o'z aksini topadi va boshqalar.
- 13. **Modernizatsiyalash** – bu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni texnik va texnologik qayta jihozlash, yuksak samarali asbob-uskunalarini xa-

rid qilish, ishlab chiqarishni atshkil etishni bevosita davlat kafolatlari, to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalari asosida amalga oshirish, shuningdek, korxonalar va aholi mablag'lari, tijorat baklari kreditlari hamda davlat byudjeti va byujetdan tashqari jamg'armalari hisobidan amalga oshirishidir.

14. Pulning funksiyalari – qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arma vositasi va jahon puli vazifasi.

15. Pulning turlari – qog'oz pullar, kredit pullar va tangalar.

16. Kredit pullarning turlari – chek, elektron pullar, veksel va boshqalar.

17. Pul barqarorligi – pulni sotib olish qiymatining o'zgarmasligi va valyuta doimiyligi.

18. Pul barqarorligining omillari – muomalaga chiqarilgan tovar va xizmatlar miqdori, talab va taklifning muvozanati, davlat byudjeti taqchilligi holati, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

1.2 Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.

1-topshiriq

Quyidagilari “Pul, kredit va banklar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari bo'yicha guruhlariga ajrating:

T/r	Ko'rsatkichlar	Fanning		
		Predmeti	Maqsadi	Vazifasi
1	Fanning mohiyati, zarurligi, belgilari va funksiyalari			
2	Respublikamizda pul sohasidagi qonuniyatlarni o'zlashtirish			
3	Mikro va makro darajadagi pul, kredit va banklar bo'yicha munosabatlar, ularga tegishli qonuniyatlarni o'rganish			
4	Pul, kredit va banklar tizimi va ular xususiyatlarini o'zlashtirish			
5	Pul va u bo'yicha munosabatlar qaysi tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi			
6	Pul, kredit va banklar siyosati hamda pul muomalasini tartibga solish usullarini bilish			
7	Kredit va u bo'yicha munosabatlar qaysi tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi			
8	Fanning ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi tutgan o'rnini tushunib yetish			
9	Pul aylanishi va uning tuzilishini o'zlashtirish			
10	Banklar va u bo'yicha munosabatlar qaysi tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi			

11	Pul-kredit siyosati va pul islohotlari zarurligini o'zlashtirish			
12	Pul, kredit va banklar bo'yicha boshqa tushuncha va ulardagi o'zgarishlarni bilish			

2-topshiriq

- Mamlakat miqyosida quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud:
 - Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – 20759,3 mlrd. so'm;
 - O'rtacha pul qoldig'i (PQ) 2700,0 mlrd. so'm
- Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlang:
 - Bir kunlik mahsulot hajmi $m = (YaIM:365) =$
 - Pul massasining aylanish soni $Y = (YaIM:PQ) =$
 - Pul massasining aylanish tezligi, kun hisobida $t = \frac{PQ}{m}$
 - Aniqlangan ko'rsatkichlar bo'yicha tegishli xulosalar yozish.

3-topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi test savollarini yeching:

- “Milliy valyuta, milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir” – jumla Respublikamiz Prezidentining qaysi asarida berilgan?**
 - Bunyodkorlik – farovon hayot manbai
 - O'zbekiston – iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida
 - Qishloq xo'jaligining taraqqiyoti – to'kin hayot manbai
 - Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi
- Pulni vujudga kelish jarayonida qiymatning shakllari.**
 - Oddiy, kengaygan, umumiy ekvivalent, pul
 - Oddiy, tasodifiy, to'la, kengaygan
 - Tasodifiy, to'la, ekvivalent, umumiy
 - To'la, kengaygan, umumiy ekvivalent, pul
- Pulni jahon puli vositasi funksiyasi qachondan to'xtatilgan?**
 - 1947 yil XVJ faoliyat ko'rsata boshlaganda
 - 1945 yil XTTB tashkil etilgach
 - 1976 yil XVJ ning 8 may sessiyasida
 - 1971 yil valyutalar kursini oltinga tenglashtirish bekor qilingach
- Pul o'z taraqqiyotida qaysi shakllarga ega bo'lgan?**
 - Tovar, tanga pullar, qog'oz pullar, elektron pullar
 - Tovar, qo'yma, tanga, banknot
 - Mahsulot, qo'yma, tanga, kartochka

d) Umumiy ekvivalent, pul, tovar, elektron

5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning ahamiyatini oshishini asosiy sabablari?

- a) Barcha jarayonning pul bilan bog'liqligi, pul ekvivalentlaridan keng foydalanilishi, ilgari pulga aylantirilmagan vositalarni ham pulda hisoblanishi
- b) Pul bozor tili, bozor iqtisodiyotining taniyu-joni ekanligi va pul ekvivalentlaridan keng foydalanilishi
- c) Bozor pul bilan tirik, pulning universal iqtisodiy vosita ekanligi, pul bozorni taniyu-joni ekanligi
- d) Rivojlanishning asosiy vositasi ekanligi, barcha talab va majburiyatlarning pulda ifodalanishi, pulni bozor tashrif qog'ozi ekanligi

6. Qog'oz pullarni paydo bo'lishinig asosiy sabablari?

- a) Metall pullarni tayyorlashdagi qalbakilik, ularni cheklanganligi, ularni tayyorlashni qimmatga tushishi
- b) Metall pullarni buzilishi, yo'qolishi va qalbaki shakllarini paydo bo'lishi
- c) Metall pullarni yemirilishi, cheklanganligi, davlat xazinasiga qimmatga tushishi
- d) Qimmatli metallarni real va nominal qiymatlaridagi farq, ularni tayyorlashdagi qalbakilik, qog'oz pullarni tayyorlashni arzonligi

7. K. Marks qaysi yirik iqtisodchilarning tadqiqotlari asosida pulni vujudga kelish jarayoni shakllarini asoslagan?

- a) A. Smit, U. Stefford
- b) D. Rikardo, T. Men
- c) U. Stefford, D. Berkli
- d) A. Smit, D. Rikardo

8. Pul muomalasini tashkil etishda qanday shaxslar faoliyati alohida qayd etilgan?

- a) Djon Lo, Dubasov I. I.
- b) Djon Lo, J. Boden
- c) J. Boden, Dubasov I. I.
- d) M. Fredmen, U. Stefford
- e)

9. Qiymat o'lchovi, muomala, to'lov, jamg'arma va jahon puli – bu:

- a) Fanning vazifalari
- b) Pulning funksiyalari
- c) Fanning maqsadi

d) Fanning predmeti

10. Pulning turlari:

- a) Qog'oz, tanga, elektron
- b) Qog'oz, kredit va tanga
- c) Kredit, tanga, veksel
- d) Elektron, qog'oz, banknot

11. Veksel, banknota, chek va elektron pullar:

- a) Muomaladagi pullar
- b) Qog'oz pullar
- c) Haqiqiy pullar
- d) Kredit pullar

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan Oliy Majlisning 1995 yil 21 dekabrda IV sessiyasida pulni barqarorligini ta'minlash yuzasidan nechta vazifa qo'yilgan?

- a) 4
- b) 1
- c) 3
- d) 2

13. Pulni sotib olish qiymatining o'zgarmasligi va valyuta doimiyliigi – bu:

- a) Pul qiymatini o'zgarmasligi
- b) Pulning barqarorligi
- c) Pul qiymati darajasi
- d) Pul-kredit siyosati

14. Tarixiy manbalarga ko'ra tangalar qachon va qayerda paydo bo'lgan?

- a) XII asr, Xitoy
- b) VII asr, Lidiya mamlakati
- c) 700-yillarda, Buxoro
- d) 1571 yil, Fransiya

15. Tarixiy manbalarga ko'ra qog'oz pullar qachon va qayerda paydo bo'lgan?

- a) VII asr, Lidiya mamlakati
- b) 1690 yil, AQSH
- c) XVIII asr, Rossiya
- d) XII asr, Xitoy

2-mavzu: Pul aylanishi va pul muomalasi

2.1 Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha asosiy manbalar.

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan pul aylanishi va uning tarkibiy qismlari. Pulni naqd pulsiz aylanishi va ularni xususiyatlari. Naqd pulsiz aylanishning tamoyillari. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy shakllari, xususiyatlari va ularni qo'llash imkoniyatlari. Pul muomalasi qonuni. Pul massasi va uni boshqarish. Pul agregatlari va ularni O'zbekistondagi xususiyatlari. Pul-kredit siyosati, uni yo'nalishlari va ularni amalga oshirishda Markaziy bankni o'rni bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba pul aylanishi va pul muomalasi bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtirishi lozim.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati:

1. **Pul aylanishi** – naqd pullik va naqd pulsiz olib boriladigan hisob-kitoblarning yig'indisi.
2. **Pul aylanishining tarkibiy qismlari:**
 - Jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq pulni aylanishi;
 - Pulni funksiyalari va to'lov turiga ko'ra aylanishi.
3. **Pulni naqd aylanishi** – bankdan boshlanib korxona va tashkilotlar kassasi orqali aholi qo'lga o'tib oldi-sotdi va to'lov harakatlari orqali yana bank kassasiga qaytishi.
4. **Pulni naqd pulsiz aylanishi** – korxona va tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarini naqd pul ishlatmasdan, pul mablag'larini hisobvaaraqdan hisobvaraqqa o'tkazish orqali amalga oshirilishi.
5. **Pul aylanishini ayrim belgilar bo'yicha guruhlanishi** – pullik munosabatlar turiga, to'lov usuliga, pul munosabatlari ishtirokchilarining hududiy joylashishiga va pulni to'lov jarayonidagi ishtirokiga ko'ra.
6. **Monetar siyosat** – muomaladagi pul miqdorini belgilash, uni nazorat qilish, banklar faoliyatini kuzatish, pul emissiyasini bajarish, davlat oltin-valyuta zaxirasini yaratish va undan foydalanish.
7. **Fiskal siyosat** – davlat byudjeti xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosat.

- 8. Naqd pul aylanishi subyektlari** – davlat va korxona, tashkilotlar, muassasalar; davlat va aholi; kredit tizimi va aholi hamda korxona, tashkilot va muassasalar o'rtasidagi cheklangan munosabatlar.
- 9. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning unsurlari** – naqd pulsiz hisob-kitoblar tamoyillari, hisob-kitob shakli, hisob-kitob hujjati, to'lov turi, to'lov navbati va manbalari, hisob-kitob qatnashchilari, ularning huquq va majburiyatlari.
- 10. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning tamoyillari quyidagilardan iborat:**
- a) Korxona va tashkilotlar o'z mablag'larini banklarda saqlashi zarurligi;
 - b) Barcha naq pulsiz hisob-kitoblarni bank orqali o'tishi;
 - c) Xo'jalik subyektlari hisob-kitoblar shakllarini erkin tanlashlari va uni shartnoma orqali mustahkamlab qo'yishlari;
 - d) Xo'jalik subyektlarining hisob-kitoblar bo'yicha shartnomaviy munosabatlariga bankni aralashmasligi;
 - e) Tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar to'lovchining roziligi bilan amalga oshirilishi;
 - f) To'lovlar xo'jalik subyektlarining hisobvaraqlaridagi mablag'lari hisobidan (ba'zan kredit hisobidan) amalga oshirilishi;
 - g) Mol yetkazib beruvchining hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish mazkur mablag'larning mol sotib oluvchining hisobvarag'idan chiqarilgandan keyin amalga oshiriladi;
 - h) To'lovchi tegishli huquqqa ega bo'lsa to'lovni qisman yoki to'liq rad etishi.
- 11. Xo'jalik subyektlari tomonidan tijorat banklarida depozit hisobvaraqlarini ochish tartibi** – xo'jalik yuritish subyektlari pul mablag'larini saqlash va hisob-kitoblar olib boorish, kassa operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida tijorat banklarining tegishli bo'linmalarida o'zlarining depozit hisobvaraqlarini ochadi.
- 12. Xo'jalik subyektlari tomonidan tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlardan foydalanishning nazorati** – xo'jalik subyektlari o'z depozit varaqlaridagi pul mablag'lari harakatini nazoratini undan foydalanish bo'yicha tuzilgan to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnoma va boshqa hujjatlar hamda bank bo'limi bilan kelishilgan muddatlarda ushbu hisobvaraqdan olinadigan ko'chirma asosida amalga oshiriladi.
- 13. Naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli haqida tushuncha** – huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan hisoblashuv hujjatlarining turi va hujjat aylanishi tartibi bilan farq qiladigan mablag'larni naqd pulsiz o'tkazish shartlariga hisob-kitob shakli deyiladi.

14. **To'lov topshiriqnoma** – mijoz o'z hisobvarag'idan unga xizmat ko'rsatuvchi bankga ma'lum bir summani boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'idir.
15. **To'lov talabnoma** – bu mablag' oluvchining belgilangan summani to'lovchi tomonidan bank orqali to'lashi to'g'risidagi talabini o'z ichiga olgan hisob-kitob hujjatidir.
16. **Akkreditiv** – mijozning topshirig'iga ko'ra shartnoma bo'yicha uning kontragenti foydasiga berilayotgan bankning shartli pul majburiyatlaridir.'
17. **Inkasso topshiriqnomasi** – mablag'lar oluvchining hisobvarag'iga to'lovchining hisobvarag'idan so'zsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi bankga topshirig'ini anglatadi.
18. **Hisob-kitob cheki** – bu mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankga chek beruvchining hisobvarag'idan chek qabul qiluvchining hisobvarag'iga ma'lum miqdordagi mablag'larni o'tkazib berish uchun bankning maxsus blankasida bankga bergan topshirig'i.
19. **Hisob-kitoblarning memorial-order shakli** – bank to'lovchi bo'lib qatnashganda qo'llanilib, memorial-orderlar bank rahbari va bosh buxgalteri imzosi bilan tasdiqlanadi, qolgan hollarda esa memorial-order bosh buxgalter va ushbu bank hisobvarag'ini yurituvchi buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi.
20. **Plastik kartochka** – tegishli bankda kartochka egasining hisobvarag'I mavjudligini tasdiqlovchi va naqd pulsiz tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi, shakli belgilangan, bank tomonidan chiqarilgan to'lov vositasi hisoblanadi.
21. **Hisob-kitob va to'lov intizomi ustidan nazorat** – hisob-kitob va to'lov operatsiyalari bo'yicha nazoratni amaldagi qonunlar, yo'riqnoma va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, tegishli vazirlik va idoralar, mustaqil tekshiruv organlari hamda xo'jalik subyektlari olib boradi.
22. **Pin-kod** – bank plastik kartochkalari saqllovchisining shaxsiy identifikatsion raqami bo'lib, u karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish huquqini beradi hamda mablag'larni boshqarishda bank plastik kartochkalarining saqllovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi.
23. **Pul muomalasi qonuni** – muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilaydigan, tovar-pul munosabatlarini o'zida aks ettiradigan qonun.
24. **Muomaladagi pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillar:**
 - a) Sotiladigan tovar va xizmatlar miqdori;
 - b) Tovlar va xizmatlar baho darajasi;

- c) Kreditni rivojlanish darajasi;
 - d) Naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlanish darajasi;
 - e) Pulni aylanish tezligi.
25. **Kassa aylanmasi xomcho'ti** mamlakat miqyosida ma'lum davrga (har chorak) oldindan bajariladigan xomcho't (prognoz) raschyotlari.
 26. **Aholining daromadlari va xarajatlari balansi** – naqd pulga bo'lgan ehtiyojni aniqlash maqsadida aholining ma'lum davrga bo'lgan daromadlari va xarajatlarining tegishli tarkibi bo'yicha tuziladigan hisob-kitoblar.
 27. **Pul massasi** – xo'jalik aylanishidagi naqd pullik hisob-kitoblarni, ya'ni aholi, korxona, tashkilot va muassasalarga tegishli xarid to'lov vositalarining yalpi hajmini o'zida ifodalaydi.
 28. **Pul agregati** – pul massasi hajmi va tarkibi ko'rsatkichi hisoblanib, M_0, M_1, M_2, M_3, M_4 va boshqa ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi va u pullar harakatining muayyan sanaga bo'lgan yoki muayyan vaqt davridagi o'zgarishini tahlil qilishda foydalaniladi.
 29. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan pul massasini boshqarishda qo'llaniladigan usullar:**
 - a) majburiy rezerv stavkasi me'yorini belgilash
 - b) tijorat banklarini ochiq bozordagi ishtiroki
 - c) Kreditlar uchun qayta moliyalash stavkalarini belgilash
 30. **Pul-kredit siyosati** – muomaladagi pul mablag'lari miqdori, bank kreditlari, foiz stavkalari, valyuta kurslarini, to'lov balansini va o'z navbatida bevosita mamlakat iqtisodiyoti holatini o'zgartirish uchun yo'naltirilgan talablar majmuasidir.
 31. **Markaziy bankning pul-kredit siyosati** – umumiqtisodiy infratuzilmalarni tartibga solishning bozor konyukturasini yuqori darajada ishlab chiqish, bandlikka ta'sir o'tkazish, nomutanosibliklarni oldini olishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.
 32. **Markaziy bankning pul-kredit siyosatining umumiy jihatlari** – kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini tartibga solish, davlat qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish, majburiy zahira me'yorlarini o'zgartirish va boshqalar.

2.2 Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq

Quyidagilarni tegishli guruhlarga ajrating:

T/r	Ko'rsatkichlar	Naqd pul aylanishi subyektlari	Naqd pulsiz hisob-kitoblarning unsurlari	Naqd pulsiz hisob-kitoblarning zaruriyati	Naqdpulsiz hisob-kitoblarning ahamiyati	Naqd pulsiz hisob-kitoblarning tamoyillari
1	2	3	4	5	6	7
1	Hisob-kitob shakllari					
2	Naqd pulga bo'lgan talabni va shu bilan birga qog'oz pullar emissiyasi va ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi					
3	Naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib boorish va amalga oshirishning tamoyillari					
4	YaIM va milliy daromad hajmining ortib borishi					
5	To'lovchi tegishli huquqqa ega bo'lsa to'lovni qisman yoki to'liq rad etishi					
6	Davlat va korxona, tashkilot, muassasalar o'rtasidagi naqd pul aylanishi					
7	Hisob-kitob hujjatlari					
8	Xo'jalik subyektlarining naqd pulga bo'lgan ehtiyoji qisqaradi					
9	Tovar aylanishi hajmini o'sishi					
10	Korxona va tashkilotlar o'z pul mablag'larini banklarda saqlashini zarurligi					
11	Davlat va aholi o'rtasidagi naqd pul aylanishi					

12	To'lov turi					
13	Mol yetkazib beruvchining hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish mazkur mablag'larning mol sotib oluvchining hisobvarag'idan chiqarilgandan keyin amalga oshirilishi					
14	O'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonidagi muomala xarajatlarini tejalishi					
15	Muomaladagi pul mablag'larining xavfsizligini kamayishi					
16	Barcha naqd pulsiz hisob-kitoblarni bank orqali o'tishi					
17	Xo'jalik subyektlari o'rtasida hisob-kitob munosabatlarining oshib borishi					
18	Kredit tizimi va aholi o'rtasidagi naqd pul aylanishi					
19	Hisob-kitoblarni banklar orqali amalga oshirilishi ularning huquqiy jihatdan qonuniyligini ta'minlaydi					
20	To'lov navbati va manbalari					
21	Xo'jalik subyektlarining hisob-kitoblar bo'yicha shartnomaviy munosabatlarga banklarni aralashmasligi					
22	Bank kreditining ayirboshlash jarayonidagi rolini oshishi					
23	Xo'jalik hisobvarag'iga pul mablag'larining kelib tushishi, ular yaratgan mahsulot yoki ko'rsatgan xizmatlarning ijtimoiy tan olinishini ta'minlaydi					

24	Hisob-kitob qatnashchilari					
25	Tovar va xizmatlar uchun to'lovlar to'lovchining roziligi bilan amalga oshiriladi					
26	Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda va hisob-kitoblarda elektron hisoblash texnikasidan, kompyuterlardan keng ko'lamda samarali foydalanishni oshishi					
27	Korxona, tashkilot va muassasalar o'rtasida cheklangan holdagi naqd pul aylanishi					
28	Xo'jaliklar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab tovar-pul mablag'lari harakatini tezlashtiradi					
29	Hisob-kitob qatnashchilarining huquq va majburiyatlari					
30	To'lovlar xo'jalik subyektlarining hisobvagar'idagi mablag'lar hisobidan, ba'zida bank krediti hisobidan amalga oshiriladi					
31	Naqd pulni ko'proq miqdorda oldi-sotdi bilan shug'ullanuvchi ish-bilarmonlar qo'lga o'tib ketganligi					
32	Naqd pulga bo'lgan talabni va shu bilan birga qog'oz pullar emissiyasi va ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni kamayishiga olib keladi					
33	Pulni davlat banki g'aznasidan chiqib yana qaytib kelish jarayonida uzilishlarni paydo bo'lishi					

34	Hisob-kitoblarni banklar orqali o'tishi lozim bo'lgan soliqlar miqdorini to'g'ri aniqlash nazoratini ta'minlaydi					
35	Davlatning naqd pul yetishmasligi muammosiga duch kelishi					
36	Xo'jalik subyektlari hisob-kitoblar shakllarini erkin tanlashlari va uni shartnoma orqali mustahkamlab qo'yishi					
	Jami	4	8	9	7	8

2-topshiriq

Quyidagima'lumotlarasosidato'lovtopshiriqnoma (1-ilova) hujjatni-to'ldiring.

To'lov topshiriqnoma nomeri: 4

Sana: 07.01.2014

To'lovchi:

To'lovchining nomi: Samarqand viloyati G'aznachilik boshqarmasi

To'lovchining hisobraqami: 23430000704626935001

STIR: 206919238

To'lovchining banki: Markaziy bank Samarqand viloyati XKKM

To'lovchi bankining kodi:00022

Summa: 59612 so'm

Oluvchi:

Oluvchining nomi: Samarqand DSI

Oluvchining hisobraqami: 20208000004295557884 STIR: 204771727

Oluvchining banki: Ipoteka bank Samarqand shahar filiali

Oluvchining bank kodi:00312

Summa so'z bilan: Ellik to'qqiz ming olti yuz o'n ikki so'm

To'lov maqsadi: Sh/xv 1000211840120007527001

N:27 Samarqand BXTB ta'lim markazi INN: 203523891

2013 yil dekabr oyi ish haqidano ushlangan pensiya fondi badali: 6,0 %

Kod: 01110

Rahbar

Mas'ul shaxs

M.O'. tekshirdi

ma'qulladi

M. Ravshanova

A. Muhammadiyev

Bankdan o'tkazildi

3 – topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi testlarni yeching.

- 1. Akseptlangan talabnomalar bo'yicha bir hududdagi, har xil hududlardagi mijozlar va korxonaning asosli iltimosiga ko'ra belgilangan muddatlar, kuni**
 - a) 4,5,10
 - b) 1,4,9
 - c) 3,7,10
 - d) 3,5,10
- 2. To'lov topshiriqnoma, inkasso topshiriqnoma va hisob-kitob cheki shakllarining kodi.**
 - a) 0505411001, 0505411008, 0505411009
 - b) 0505411003, 0505411009, 0505411010
 - c) 0505411002, 0505411013, 0505411005
 - d) 0505411001, 0505411011, 0505411008
- 3. Pul aylanishi qaysi belgilar bo'yicha guruhlanadi?**
 - a) Pullik munosabatlar, to'lov usuli, ishtirokchilarning joylashishi, to'lov ob'ekti bo'yicha
 - b) Pullik munosabatlar, ishtirokchilarning joylashuvi, to'lov usuli, to'lov jarayonidagi ishtiroki bo'yicha
 - c) To'lov ob'ekti, subyekti, pullik munosabatlar, ishtirokchilarning joylashuvi
 - d) Naqd pullik to'lovlar, to'lov usuli, pullik munosabatlar, to'lov jarayonidagi ishtiroki.
- 4. To'lov talabnoma, akkreditiv va memorial-order shakllarining kodi?**
 - a) 0505411001, 0505411003, 0505411008
 - b) 0505411001, 0505411009, 0505411008
 - c) 0505411005, 0505411008, 0505411009
 - d) 0505411002, 0505411009, 0505411003
- 5. Xo'jalik subyekti o'rtasida qo'llaniladigan hisoblashuvning asosiy shakllari.**
 - a) Topshiriqnoma, talabnoma, akkreditiv, hisob-kitob cheki, byudjetning kassa ijrosi
 - b) Memorial-order, talabnoma, hisob-kitob cheki, hisob registri

- c) Talabnoma, topshiriqnoma, akkreditiv, hisob-kitob cheki, inkasso topshiriqnoma
- d) Akkreditiv, hisob-kitob cheki, inkasso topshiriqnoma, hisob-varaqdan ko'chirma

6. Ijro hujjatlarning asosiy turlari

- a) Yuqori tashkilotlar buyruqlari, xo'jalik sudining buyruqlari, notarius ustxatlari
- b) Xo'jalik sudining buyruqlari, sudlar tomonidan berilgan ijro buyruqlari, soliq organlari qog'ozi
- c) Xo'jalik sudining va sudlardan berilgan ijro varaqlar, notarius ustxatlari, mehnat nizolari bo'yicha komissiya guvohnomalari va boshqalar
- d) Notarius ustxatlari, sudlarning qarorlari, ichki ishlar va bojxona qarorlari

7. O'zbekiston Respublikasida Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomning so'nggi tahriri qaysi organ tomonidan va qachon qabul qilingan?

- a) Markaziy bank, 2013 yil 26 aprel
- b) Moliya vazirligi, 1996 yil 24 yanvar
- c) Adliya vazirligi, 1997 yil 15 oktabr
- d) Qishloq xo'jalik vazirligi 2002 yil 25 sentabr

8. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy unsurlari

- a) Naqd pulsiz hisob-kitoblarning tamoyillari, shakllari, hujjatlari, qatnashuvchilar, to'lov turi, navbati va manbalar
- b) Hisob-kitob hujjatlari, ularni to'ldirish bo'yicha talablar, qatnashuvchilarning huquq va majburiyatlari, shartnomalar
- c) Hisob-kitob qatnashuvchilari va ularning huquq va majburiyatlari, to'lov turi va manbalari
- d) Hisob-kitob shakllari, hujjatlari, to'lov navbati va manbalari, hisobvaraqlarning mavjudligi

9. Inkasso topshiriqnomani asosan qaysi tashkilot va shaxslar taqdim etadi?

- a) Soliq idoralari, O'zavtodor konserni, bojxona organlari, sud ijrochilari va boshqa undiruvchilar
- b) O'zavtodor konserni, soliq idoralari, bojxona organlari, mehnat nizolari bo'yicha komissiyalar
- c) Notariuslar, mehnat nizolari bo'yicha komissiyalar, byudjet tashkilotlari, sud organlari
- d) Sud ijrochilari, soliq organlari, xo'jalik sudlari, qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa organlar

10. **Mamlakatimizda qaysi rejimda ishlaydigan plastik kartochkalar mavjud?**
- a) Tegishliligi va foydalanish tartibiga ko'ra
 - b) Aloqadorligi va bajaradigan vazifasiga ko'ra
 - c) "on-line", "off-line"
 - d) Debet, kredit va elektron hamyonga tegishliligi bo'yicha
11. **Hisob-kitob va to'lov intizomi buzilishi bo'yicha choralar, Markaziy bank to'g'risidagi, Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunlarning qaysi moddalarida berilgan va shu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining sanasi?**
- a) 35, 39, 1996 yil 24 yanvar
 - b) 33, 40, 2005 yil 5 avgust
 - c) 53, 39, 2007 yil 12 iyul
 - d) 55, 44, 2001 yil 13 aprel
12. **Mamlakatimizda pul aylanishining asosiy qismi uning qaysi qismiga to'g'ri keladi?**
- a) Naqd pullik
 - b) Bank orqali
 - c) Plastik kartochka
 - d) Naqd pulsiz
13. **Banklarda ochiladigan hisobvaraqlar qaysi yo'riqnoma asosida amalga oshiriladi?**
- a) Markaziy bankning 7/2 qarori
 - b) Markaziy bankning 9/1 nizomi
 - c) Markaziy bankning 376-son qarori
 - d) Vazirlar Mahkamasining 206-sonli qarori
14. **Tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra to'lov talabnomalar qanday turlarga bo'linadi?**
- a) Bir hududga va hududlararo
 - b) Amaliyot kunidagi tushumga ko'ra
 - c) Akseptli va akseptsiz
 - d) To'lovchining hisobvarag'ida mablag'i mavjud va mavjud bo'lmagan holatlar
15. **Akkreditivlarning turlari**
- a) Qoplangan yoki deponentlangan
 - b) Qoplanmagan yoki kafolatlangan
 - c) Ijrochi bankdan va uning filialidan to'lanadigan

d) Qoplangan va qoplanmagan

16. Agar sotilayotgan tovarning qiymati hisob-kitob cheki summasidan kam bo'lsa hisob-kitob chekini qabul qiluvchi chek summasini necha foizgacha bo'lgan qaytimini naqd pulda qaytarish mumkin?

- a) 25%
- b) 20%
- c) 15%
- d) 10-15%

17. Pul multiplikatori qanday nisbat asosida aniqlanadi?

- a) Pul massasini pul bazasiga nisbati
- b) Tijorat banki tomonidan berilgan kreditlarni markaziy bank tomonidan tijorat banklariga berilgan kreditlarga nisbati
- c) YaIMni pul aylanishi soniga nisbati
- d) Pul aylanishi sonini YaIMga nisbati

18. O'zbekistonda pul massasi qanday pul agregatlariga bo'linadi?

- a) $M_1; M_2; M_3; M_4$
- b) $M_1; M_2; M_3; M_4; M_5$
- c) $M_0; M_1; M_2; M_3; M_4$
- d) $M_0; M_1; M_2; M_3; M_5$

19. Iqtisod monitizatsiyasi koeffitsienti qaysi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi?

- a) M_4 ni YaD-ga nisbati
- b) M_3 ni YaIM-ga nisbati
- c) M_2 ni SD-ga nisbati
- d) M_4 ni YaIM-ga nisbati

20. Markaziy bank pul-kredit siyosatini yuritishning maqsadi.

- a) Mamlakat pul-kredit tizimini tartibga solish, iqtisodiyotni yuksaltirishni ta'minlash
- b) Mamlakat pul-kredit tizimini tartibga solish funksiyasiga asos yarata-di
- c) Mamlakat yalpi mahsuloti o'sishini ta'minlaydi
- d) Xalq farovonligi o'sishini ta'minlaydi

3-mavzu: Pul tizimi va pul nazariyalari

3.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha manbalar.

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan pul tizimi va uning elementlari, pul tizimining turlari, O'zbekiston Respublikasining pul tizimi va uning elementlari, rivojlanayotgan mamlakatlar pul tizimi elementlari, xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha so'mning erkin almashinishi, pulning metallic, nominallik, mulkdoriylik, monetarizm va boshqa nazariyalari, pul to'g'risidagi oqimlar bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba pul tizimi va pul nazariyalari bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma materiallari asosida o'zlashtirishi lozim.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati:

- 1. Pul tizimi** deganda mazkur mamlakatda pul muomalasini qonuniy va mutanosib ravishda tashkil qilishda qo'llaniladigan uslublar majmuasi tushuniladi.
- 2. Pul tizimining elementlari** – pul birligi, baho masshtabi, pulning turlari, emissiya tizimi, pul muomalasini tartibga soluvchi davlat muassasasi.
- 3. Pul tizimining tarixiy turlari** – metal pullar tizimi, kredit va qog'oz pullar tizimi.
- 4. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining bosqichlari** – I bosqich 1992 yilni 15-noyabridan so'm kuponlarni joriy etilishi va II bosqich 1994 yilni 1-iyulidan milliy valyuta so'mni muomalaga kiritilishi.
- 5. Rivojlanayotgan mamlakatlar pul tizimining elementlari** – pul birligi; valyuta kursini belgilovchi omillar; baho masshtabi; pul ko'rinishidagi kredit biletleri; qog'oz pul va tanga emissiya tizimi; davlat yoki kredit apparati.
- 6. O'zbekiston Respublikasining pul tizimi xususiyatlari** – samarali pul-kredit siyosatini olib borish, davlat qarzini boshqarish, soliq siyosatini amalga oshirish, moliya bazasini shakllantirish, monetary siyosatni amalga oshirishda pul massasi ustidan nazoratni ta'minlash.
- 7. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari** – pul birligi, pul birligining turlari, ularni muomalaga chiqarish qoidalari, pul, kredit, valyuta boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari, naqd pulsiz to'lov aylanishi va kredit pullar muomalasining olib borishda davlat tomonidan belgilangan shartlar, milliy valyutani cheklash va chetdan sotib olish qoidalari, xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari, milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi va davlat tomonidan belgilangan valyuta kursi.
- 8. Xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'mning konvertarizatsiyasi** – Respublika-mizda xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'mning konvertarizatsiyasi 2003-yilni 15-oktyabrda joriy etilgan va unga tashqi savdo, savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul junatmalari, xalqaro munosabatlarda kreditlar, qarzlar, xorijiy

davlatlardagi diplomatiya va boshqa vakolatxonalari, xalqaro notijorat tashkilotlariga badallar va boshqa to'lovlar kiradi.

9. Pul nazariyasi – pul tabiati va pulning ishlab chiqarishni shakllantirishga ta'siri haqidagi nazariyalar.

10. Pul haqidagi asosiy nazariyalar – metallik, nominallik, miqdoriylik, monetarizm va boshqalar.

11. Metallik nazariyasi – XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida Angliyada paydo bo'lgan. Uning asosiy g'oyasi faqat qimmatbaho metallar pul vazifasini bajarishi, jamiyatning boyligi qimmatli metallar zaxirasi bilan bog'ligi hamda boylikning manbai savdo ekanligida.

12. Nominallik nazariyasi – XVII-XVIII asrlarda Angliyada paydo bo'lgan va uning asosiy g'oyasi pulni davlat chiqaradi va uni qiymati unda ko'rsatilgan nominal bilan belgilanadi.

13. Miqdoriylik nazariyasi – XVI-XVIII asrlarda Fransiyada paydo bo'lib uning g'oyasi pulni xarid qobiliyati bozorda o'rnatiladi, muomalada barcha emissiya qilingan pullar yuradi, baholar darajasi pul miqdoriga to'g'ri proporsional.

14. Monetarizm nazariyasi – hozirgi zamon pul nazariyalaridan biri bo'lib 1950 yilda AQSh da paydo bo'lgan va u miqdoriylik nazariyasining bir ko'rinishi bo'lib, ushbu nazariyadagi g'oyalarga pul miqdoriga bank foizi va inflyatsiyani ta'sir etishi qo'shimcha ta'kidlangan.

15. Pul to'g'risida oqimlar – oltin tanga standarti, quyma oltin standarti, oltin deviz standarti.

3.2 Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.

1-topshiriq.

Quyidagilarni tegishli guruhlariga ajrating.

T/r	Ko'rsatkichlar	Pul tizimi elementlari				Pul nazariyalari			
		Umumiy holda	Rivojlangan mamlakatlarda	O'zbekiston		Metallik	Nominallik	Miqdoriylik	Monetarizm
				Elementlar	Pul tizimi xususiyatlari				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Pulning turlari								
2	Pul birligi								
3	Baho masshtabi								
4	Valyuta kursini belgilovchi qoidalar								

5	Emissiya tizimi								
6	Pul, kredit, valyuta boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari								
7	Pul ko'rinishidagi kredit biletleri, qog'oz pul va tanga								
8	Davlat yoki kredit apparati								
9	Samarali pul-kredit siyosatini olib borish								
10	Muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasi								
11	Davlat qarzini boshqarish								
12	Pulni muomalaga chiqarish qoidalari								
13	Soliq siyosatini amalga oshirish								
14	Naqd pulsiz to'lov aylanishi va kredit pullar muomala-sining olib borishda davlat tomonidan belgilangan shartlar								
15	M.Fredmen qaysi pul nazariyasi yoki oqimining namoyondasi								

16	Moliya bozorini shakllantirish								
17	D.Berkli qaysi pul nazariyasi yoki oqimining namoyondasi								
18	Milliy valyutani chetga olib chiqish va chetdan olib kelish qoidalar								
19	U.Stefford qaysi pul nazariyasi yoki oqimining namoyondasi								
20	Monetar siyosatni amalga oshirishda pul massasi ustidan nazoratni ta'minlash								
21	Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari								
22	J.Boden qaysi pul nazariyasi yoki oqimining namoyondasi								
23	Milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi va davlat tomonidan belgilangan valyuta kursi								

2-topshiriq.

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi test savollarini yeching:

1. Barcha pul tizimlariga xos bo'lgan elementlar.

A) Baho masshtabi, valyuta kursi, emissiya, pul muomalasi, pul birligi.

- B) Pul birligi, baho masshtabi, pulni turlari, emissiya, muomaladagi pul mas-sasini tartibga soluvchi davlat muassasi.
- C) Pul birligi, valyuta kursi, pulni konvertirlanganligi, pulni turlari, emissiya tizimi.
- D) Baho masshtabi, valyuta pariteti, pul birligi, pulni almashtirish shartlari, emissiya tizimi.

2. Pul tizimining tarixiy turlari

- A) Metal pullar tizimi, kredit va qog'oz pullar tizimi
- B) Haqiqiy pullar, haqiqiy pullar o'rnioni bosuvchi pullar
- C) Bimetallizm, Monometalizm
- D) Qimmatli metallar tizimi, kredit pullar tizimi

3. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining bosqichlarining sanalari

- A) 1992-yil 15-noyabr, 1994-yil 1-iyul
- B) 1993-yil 15-noyabr, 1995-yil 15-sentyabr
- C) 1991-yil 1-noyabr, 1994-yil 1-iyul
- D) 1992-yil 25-dekabr, 1993-yil 1-noyabr

4. Dastlabki pul tizimi qachon paydo bo'lgan?

- A) XVI asrda
- B) XVII asrda
- C) XII asrda
- D) XVI-XVII asrlarda

5. Umumiy holda, rivojlangan mamlakatlar va O'zbekistonda pul tizimi elementlarining soni

- A) 5, 6, 7
- B) 3, 4, 5
- C) 5, 6, 8
- D) 4, 5, 6

6. Hozirgi zamon pul nazariyasi.

- A) Metallik
- B) Monetarizm
- C) Nominallik
- D) Miqdoriylik

7. J.Boden qaysi pul nazariyasining asoschisi hisoblanadi

- A) Miqdoriylik
- B) Metallik

- C) Mehnat
- D) Monetarizm

8. T.Men, D.Norslar qaysi pul nazariyalarining davomchilari hisoblanadi.

- A) Miqdoriylik
- B) Nominallik
- C) Metallik
- D) Mehnat

9. Qaysi pul nazariyasining ikkinchi nomi davlat pul nazariyasi hisoblanadi

- A) Nominallik
- B) Miqdoriylik
- C) Monetarizm
- D) Metallik

10. Qaysi pul oqimi metallic nazariyasining bir yo'nalishi hisoblanadi

- A) quyma oltin standarti
- B) oltin deviz standarti
- C) oltin tanga standarti
- D) mehnat nazariyasi

4 – Mavzu: Inflyatsiya va uning turlari. Pulni barqarorligini ta'minlash yo'llari.

4.1 Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha manbalar.

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan inflyatsiya, uni paydo bo'lishi va sabablari; inflyatsiyani ichki va tashqi omillari; inflyatsiyaning turlari;

Deflyatsiya va dezinflyatsiya; inflyatsiyani ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari; inflyatsiyani bartaraf etishda davlatning uzoq va qisqa muddatli choralari; Pul muomalasini barqarorlashtirishning usullari; jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida markaziy bank pul – kredit siyosatining xususiyatlari bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba inflyatsiya va pulni barqarorligini ta'minlash yo'llari bo'yicha mavjud me'yoriy xujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi xamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtirishi lozim.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati;

- 1. Inflyatsiya** - Ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keluvchi nomutanosibliklar sababli tovarlar va xizmatlar baxosining umumiy va to'xtovsiz o'sishi natijasida pul muomilasi qonunining buzilishi oqibatida pul birligining qadrsizlanishidir.
- 2. Inflyatsiyaning mohiyati** - buso'zlotincha "infeotio" so'zidan olingan bo'libshish, bo'rtish, ko'pchishma'nosini anglatadi va XIX asr ortasidan boshlab iqtisodiy termin sifatida qo'llana boshlagan.
- 3. Deflyatsiya** - narx-navoni pasayishi, pul qadrini ortishini bildiradi.
- 4. Dezinflyatsiya** - u baholar o'sishi sur'atini pasaya boshlaganini anglatadi.
- 5. Inflyatsiyaning asosiy sabablari** - jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi, talab va taklif o'rtasidagi, muomiladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutanosibliklar.
- 6. Inflyatsiyaning asosiy turlari** – sudraluvchi, suzib yuruvchi, shiddatli, giper va boshqalar (talab, xarajatlar, kredit, import, kutilayotgan)
- 7. Stagflyatsiya** - Inflyatsiyaning iqtisodiy tanglik bilan birgalikda yuz berishi.
- 8. Ochiq va yopiq Inflyatsiya** – baxolarni o'sishi sezilarli xolda xamda tovar va xizmatlar sifatini baxo o'zgarmagan xolda pasayishi.
- 9. Inflyatsiya to'g'risidagi ayrim nazariya va qarashlar** - Keynes modeli, Filips egri chizig'i, «70 lar qoidasi» va boshqalar.
- 10. Inflyatsiyaning ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlari.**
 - Ishlabchiqarishnistixiyaligikuchayadi, tarmoqlarmutonositligibuziladi.

-

Bo'shmablag'larni ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga oqibo'tishini kuzatiladi.

- Tovarlar normal harakati buzilib bozordan bozorga ko'chib yurishi sodir bo'ladi.

- Olib sotarlik keng yoyloqchiladi.

- Iste'mol va ehtiyojni izdan chiqaradi.

- Qisqa va uzoq muddatli kreditlash qisqaradi.

- Aholi mablag'larini jamg'armaga jalb etish qiyinlashadi.

- Pulni qadrsizlanishi debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- Byudjet taqchilligi sodir bo'ladi, emissiyaga zo'r beriladi va u muomala-dagi pul miqdorini oshishi tufayli Inflatsiyani yanada kuchaytiradi.

- Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga ta'sir ko'rsatadi va boshqalar.

11. Inflyatsiyani bartaraf etishda qisqa va uzoq muddatli choralar ;

A. Qisqa muddatli ;

- axoli ehtiyojini qondirish buyicha tovarlar va xizmatlar doirasini kengaytirish.

- ish xaqi va ijtimoiy to'lovlarni indeksatsiyalab borish.

- bank kreditlari foizlarini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish.

- pulni bankdan tashqariga harakat qilishga yo'l qo'ymaslik.

- qimmatli qog'ozlar bozorini kengaytirish.

- omonatlar turini ko'paytirish va ular bo'yicha to'lanadigan foizlarni qayta ko'rib chikish.

- sug'urta xizmatidan foydalanishni rag'batlantirish va boshqalar.

B. Uzoq muddatli :

- ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

- soliq tizimini takomillashtirish.

- pul massasini o'sishini chegaralash.

- milliy valyuta kursini oshirish.

- rakobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish

- inflyatsiyaga ta'sir kursatadigan tashqi omillarni nazorat qilish va boshqalar.

- davlat byudjeti difitsitiga yo'l qo'ymaslik.

12. Jahon amaliyotida pul muomilasini barqarorlashtirishda qo'llaniladigan usullar Nullifikatsiya , revolvatsiya , denominatsiya va boshqalar.

13. Pul – kredit siyosati - davlatning iqtisodiy boshqarish siyosatining bir qismi bo'lib, muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, foiz stavkalari darajasi ssuda kapitali bozori ko'rsatkichlari , inflyatsiya o'sishning nazorati va boshqa tadbirlar asosida iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

14. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida Markaziy bank pul kredit siyosatining xususiyatlari – bunda Markaziy bank pul - kredit siyosatining xalqaro jixatlari – valyuta kursi, valyuta rezervlari, to'lov balansi va muayyan sharoitdan kelib chiqib uning boshqa jixatlariga e'tibor qaratiladi.

15. Inflyatsiyaning ko'rsatkichlari- Inflyatsiya sur'ati va yalpi ichki maxsulot deflyatori.

16. Yalpi ichki maxsulot deflyatori- mamlakat iqtisodiyotidagi inflyatsiyaning umumiy darajasini ko'rsatib u is'temol savatiga kiradigan barcha tovar va xizmatlar baxo indeksini o'z ichiga oladi.

17. Pul barqarorligining mohiyati. Pulning barqarorligi deganda pulning sotib olish qiymatining o'zgarmasligi va valyuta doimiyligi tushuniladi.

18. Pulning barqarorligini ta'minlashning asosiy omillari:

- iste'mol bozorini kerakli molar bilan to'ldirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish;
- valyuta zaxiralarini ko'paytirish choralarini ko'rish;
- yoqilg'i – energiya manbalarini, ko'pgina uskuna va oziq-ovqatlar importini eng kam zarur miqdorga qadar kamaytirish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va boshqalar.

4.2 Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq

Quyidagi shartli ma'lumotlar asosida inflyatsiya(deflyatsiya) darajalarini aniqlang.

Bazis davrida A mahsulot bo'yicha umumiy narxlar 190 birlikni, B mahsulot bo'yicha 210 birlikni tashkil etgan, hisobot yilida esa A mahsulot bo'yicha 210 va B mahsulot bo'yicha 200 birlikni tashkil etgan.

2-topshiriq

Oylik inflyatsiya darajasi 10 foizga teng bo'lganda yillik inflyatsiya indeksi va yillik inflyatsiya darajasini aniqlang.

1. Yillik inflyatsiya indeksi: $in = (1+0,1)^{12} =$

2. Yillik inflyatsiya darajasi: $V = (n - 1) = 3,45 - 1 =$

3-topshiriq

Bank bir yilga 750 ming so'm kredit berdi. Operatsiyaning talab etiladigan daromad keltirish yillik 5 foiz. Kutiladigan inflyatsiya darajasi – 70 foiz. Yuqoridagilar asosida aniqlang:

1. Inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda kredit bo'yicha foiz stavkasini;
2. Qaytariladigan summani;
3. Hisoblangan foiz summasini.

4- topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi test savollarini yeching

1. “Inflyatsiya” so’zi iqtisodiyotga qachon kirib kelgan?

- a) XX asr boshlarida
- b) XIX asr o'rtalarida
- c) XVIII asr oxirida
- d) XIX asr boshida

2. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi qanday omillar mavjud?

- a) Iste'mol va jamg'arma
- b) Ichki omillar
- c) Tashqi omillar
- d) Ichki va tashqi omillar

3. Stagflyatsiya nima?

- a) Jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi nomutanosiblik
- b) Taklif va talab o'rtasidagi nomuvofiqlik
- c) Inflyatsiyaniiqtispdiytanglikbilanbirgayuzberishi
- d) Tovarvaxizmatlarbahosiniyuqorisur'atlardao'sishi

4. Dezinflyatsiya nima?

- a) Pul qadrini oshishi
- b) Baholar o'sish sur'atini pasaya boshlanishi
- c) Pul qadrini pasayishi
- d) Iste'mol savati tovarlari bahosini oshishi

5. Inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichlari

- a) Chakana va ulgurji tovarlar bahosini o'sish ko'rsatkichi
- b) Inflyatsiyaning joriy va bazis yili ko'rsatkichlari
- c) Inflyatsiya sur'ati, yalpi ichki mahsulot deflyatori
- d) Deflyator va chakana savdo tovarlari baholarini oshishi ko'rsatkichi

6. Pulni bankdan tashqariga harakat qilishiga yo'l qo'ymaslik inflyatsiyaga qarshi kurashning qaysi tadbiriga kiradi?

- a) Pul barqarorligini ta'minlash
- b) Uzoq muddatli tadbirlar
- c) Qisqa muddatli tadbirlar
- d) Davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash

- 7. Davlat byudjeti defitsini kamaytirishga erishish inflyatsiyaga qarshi kurashning qaysi tadbiriga kiradi?**
- a) Uzoq muddatli tadbirlar
 - b) Qisqa muddatli tadbirlar
 - c) Iqtisodiy rivojlantirishning ma'lumbosqichitalabiasosida
 - d) Banklar barqarorligini ta'minlash talablari asosida
- 8. Respublikamiz Prezidentining 1995 yil 21 dekabr Oliy Majlisining 4 sessiyasidagi nutqida pulni barqarorligini ta'minlash yuzasidan nechta omil ko'rsatilgan?**
- a) 3
 - b) 2
 - c) 5
 - d) 4
- 9. Mamlakatimizda 2013 va 2014 yillarda inflyatsiya darajasi necha foizni tashkil etgan?**
- a) 7.4 va 7.3
 - b) 6.8 va 6.1
 - c) 7.8 va 7.4
 - d) 7.3 va 8.1
- 10. Yalpi ichki mahsulotning deflyatori nima?**
- a) Mamlakat iqtisodiyotidagi ko'rsatkichlardan biri
 - b) Iqtisodiyotdagi inflyatsiyaning umumiy darajasi ko'rsatkichi
 - c) Iste'mol savati baholari indeksi
 - d) Xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlari inflyatsiya ko'rsatkichi
- 11. Inflyatsiya to'g'risidagi nazariya va qarashlardan „ 70 lar qoidasi “ qaysi muallifga tegishli ?**
- a) Qodirov A
 - b) Abdullayeva Sh . Z
 - c) Keyns K.
 - d) Fredmen M .
- 12. Denominatsiya nima ?**
- a) Eski pul o'rniga yangi pulni chiqarilishi
 - b) Pul qadrini oshishi
 - c) Muomaladagi pul miqdorini bir necha barobar qisqartirilgan xolda yangi pullarni chiqarish
 - d) Pul qadrini tushirish

5-Mavzu: Kreditning mohiyati, zarurligi va funksiyalari. Kreditni turlari va shakllari

5.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirishbo'yicha manbalar.

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan kreditning mohiyati, ahamiyati va zarurligi; Kreditning imkoniyati; Bozor iqtisodiyoti sharoitida va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kreditning o'rni; Kredit munosabatlarining bosqichlari; Kreditning tamoyillari; Kreditning bank, davlat, iste'mol, tijorat, lizing va xalqaro turlari; Kreditning shakllari; Nominal, real, qat'iy belgilangan, suzib yurivchi foiz stavkalari; Kreditni ichki, qayta taqsimlash va antisinatsiyaviy chegaralari bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba kredit, uning turlari va shakllari hamda uni iqtisodiyotda tutgan o'rni bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari o'zlashtirishi lozim.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati.

1. Kreditning mohiyati.

Kredit (lotincha - ishonish) deganda o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan ayrim qiymat yoki pul mablag'larining boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar tushuniladi.

2. Kreditning zaruriyati – ishlab chiqarishni mavsumiyligi, mahsulotni ishlab chiqarish vaqti bilan uni sotish vaqtini ko'pchilik mahsulotlar bo'yicha mos kelmasligi, sotilgan mahsulot va xizmatlar uchun pulni o'z vaqtida kelib tushmasligi, xo'jaliklarni o'z mablag'larini yilni ayrim davrlarida yetishmasligi va boshqa ayrim holatlar xo'jaliklarni kreditdan foydalanishni taqozo etadi.

3. Kreditning imkoniyati – shu bilan bog'liqki, korxonalar mahsulot sotishda, xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblarda, jismoniy va yuridik shaxslar o'z pullarini banklarda saqlashi va boshqa holatlar vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larining mavjudligiga olib keladi va uni kreditga ehtiyoji bo'lgan subyektlarga vaqtinchalik muddatga berish imkoniyati mavjud.

4. Kreditning obykti – qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan vaqtincha bo'sh bo'lgan qiymat. Kredit ma'lum maqsadlarga (o'g'it, urug'lik va boshqalar) beriladi.

5. Kreditning subyekti – kredit oluvchi, tijorat banklari va boshqalar.

6. Kreditning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati:

- naqd puldan foydalanishni kamaytirib, muomala xarajatlarini, pul emis-siyasini kamayishini ta'minlaydi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini kredit muassasalarida saqlanishi ulardan unumli foydalanishni ta'minlaydi;
- bank muassasalarida yig'ilgan bo'sh pul mablag'lari xalq xo'jaligi tar-moqlari, korxonalarning asosiy va aylanma mablag'larini to'ldirishning (qarz-ga olingan manba sifatida) muhim manbai hisoblanadi;
- kredit tufayli xo'jaliklar o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarining o'z vaqtida ta'minlanishi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluk-sizligi ta'minlanadi va boshqalar.

7. Kredit munosabatlari rivojlanishining asosiy bosqichlari:

A) Dastlabki shakllanish – bu bosqichning asosiy xususiyati ssuda kapi-tali bozorida maxsus vositachilarning yo'qligi. Bo'sh pul mablag'larining egasi va qarz oluvchi o'rtasida bevosita amalga oshirilishi, mablag'larni taqsim-lashning cheklanganligi, foizlarning yuqoriligi va boshqalar.

B) Tarkibiy jihatdan rivojlanish – buning xususiyati ssuda kapitali bozo-rida kredit-moliya tashkilotlari kabi maxsus vositachilarni paydo bo'lishi, ikti-sodiyotda kredit munosabatlarini davlat tomonidan markazlashgan holda bosh-qarilishi.

C) Kredit munosabatlarining takomillashuvi – bozor iqtisodiyoti sharo-i-tida kredit munosabatlarini yangi sifat darajaga ko'tarilishi, bank tarmoqlarida kompyuter texnologiyalarining shakllanishi, mijozga xizmat ko'rsatishning yaxshilanishi, ular sifati va turini oshishi hamda kredit munosabatlarini xalqaro bozorga ham tarqalishi.

8. Kreditning funksiyalari – qarzga beruvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish, qayta taqsimlash, muomala xarajatlarini tejash, kapital to'planishining jadallashuvi va markazlashuvi, muomalaga to'lov vositalarini chiqarish.

9. Kredit resurslari:

- tovarlarni sotish va kerakli moddiy qiymatlarni sotib olish vaqtlarining bir-biriga mos kelmasligi tufayli yuzaga keladigan bo'sh pul mablag'lari;
- hisoblangan ish haqi va uni to'lash vaqtlari orasidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'lari;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig'iladigan va kapi-tallashtirish uchun mo'ljallangan mablag'lar;
- shaxsiy sektor daromadlari va jamg'armalari;
- korxonalarni vaqtincha taqsimlanmagan foydasi va boshqalar;
- kredit muassasalarining vaqtincha bo'sh mablag'lari;

10. Kreditning asosiy tamoyillari – muddatlilik, tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganlik, qaytarilishi, to'lovlilik, maqsadlilik va kreditning samaradorligi.

11. Kreditning asosiy shakl va turlari:

A) Kreditlar tovar shaklida, pul shaklida va boshqa shakl va shartlarda beriladi.

B) Kreditning asosiy turlari bo'lib bank krediti, davlat krediti, iste'mol krediti, tijorat krediti, lizing krediti va xalqaro kreditlar hisoblanadi.

12. Bank krediti va uning asosiy belgilari bo'yicha guruhlanishi.

Iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining asosiy turi bo'lib bank krediti hisoblanadi. Bank krediti quyidagi belgilari bo'yicha guruhlanadi:

A) kreditlash obyektlarining iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra (tovar-moddiy boyliklarga va ishlab chiqarish xarajatlariga berilishi);

B) to'lash muddatiga ko'ra (qisqa, o'rta va uzoq muddatli);

C) kreditni to'lash manbalariga ko'ra (qarz oluvchining mablag'lari va garant mablag'lari hisobiga);

D) ta'minlanganlik tamoyilining amal qilishiga ko'ra (bevosita, bilvosita va ta'minlangan kreditlar);

E) foiz darajasiga ko'ra (past, o'rta, yuqori va ba'zan foizsiz kreditlar)

13. Iste'mol krediti – u jismoniy shaxslarga beriladigan kredit bo'lib bunda kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birgalikda savdo va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo'lishi mumkin. Iste'mol krediti ikki shaklda: pul va tovar shaklida amalga oshadi. Ular jumlasiga mamlakatimizda 2001-2002 o'quv yilidan boshlab talabalarni o'qishi uchun beriladigan "Oltin davrim" kreditini ham kiritish mumkin.

14. Davlat krediti – uning asosiy xususiyati bo'lib kredit munosabatlarida davlatning ishtiroki hisoblanadi. Bunda davlat qarz beruvchi (Markaziy bank orqali iqtisodiyotning turli sohalarini kreditlashda) va qarz oluvchi (Davlat zayomlarini chiqarish, byudjet taqchilligini qoplashda va boshqalar) sifatida ishtirok etadi.

15. Tijorat krediti – bu iqtisodiyotda kredit munosabatlarining vujudga kelishining dastlabki kredit shakllaridan hisoblanadi. Ushbu kreditning obyekti bo'lib sotiladigan tovarlar, subyekti bo'lib mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxona va tashkilotlar hisoblanadi. Tijorat kreditining quyidagi turlari mavjud:

A) **veksel** – bu qarz majburiyati bo'lib, qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzni ko'rsatilgan summada, ko'rsatilgan shartlarda, belgilangan muddatda to'lash majburiyatini oladi. Amaliyotda vekselning oddiy va o'tkazma turlari mavjud;

B) **ochiq schyot** – bunda xaridor tovarga buyurtma berilishi bilan yuklab jo'natiladi, to'lov esa belgilangan muddatlarda kelishilgan so'mma chegarasi-

da vaqti-vaqti bilan amalga oshirilib boriladi. Bunda xaridor har gal tovar olishda kreditni rasmiylashtirmaydi, ya'ni kreditga murojaat qilmaydi;

C) chegirma berish – bunda xaridor to'lov hujjatlari yozilgandan so'ng, shartnomada kelishilgan ma'lum davr ichida to'lovni amalga oshirsa to'lov yig'indisidan chegirma beriladi;

D) mavsumiy – bu mavsumiy tovarlarga (o'yinchoq, fartuk va boshqalar) beriladigan kredit bo'lib ular muddati o'tganda qaytariladi;

E) konsignasiya – bunda tovarni sotib oluvchilar hych qanday majburiyatsiz sotib oladilar, ya'ni tovarlar sotilgandan keyin puli to'lanadi, agar u sotilmay qolsa egasiga qaytarib beriladi.

16.Lizing krediti – bu mulkiy munosabatlar majmui bo'lib bunda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi taraf (mol yetkazib beruvchi)dan lizing shartnomasiga muvofiq lizing obyekti bo'lgan mulkni o'z mulki qilib sotib olib uni to'lash asosida lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun lizing oluvchiga beradi. Lizing inglizcha ijara ma'nosini bildiradi. Bugungi zamonaviy lizingni moliyaviy lizing ham deb ataladi.

17. Lizingning turlari – operativ, moliyaviy, ikkilamchi(sub ijara)

18. Kredit foizi – kreditlashning asosiy sharti bo'lib unga ma'lum haq (foiz) to'lanishi hisoblanadi. Kreditning foiz miqdori kreditning turi, uni muddati, vaqtida qaytarilishi va ayrim boshqa holatlarga bog'liq. Yuqoridagilardan kelib chiqib kredit foizini belgilashda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi, tijorat banklari oladigan foyda va boshqa omillar hisobga olinadi.

19.Kredit foizining turlari. Adabiyotlarda kreditning nominal va real stavkasi tushunchasi mavjud. Nominal foiz stavkasi deganda kredit shartnomasida kuzda tutilgan foiz stavkasi tushuniladi. Kreditning real savkasini aniklash uchun nominal stavkasidan inflyasiya darajasi chegiriladi.

Bundan tashkari kreditning kredit shartnomasi bajarilganga kadar uzgarmaydigan (qat'iy belgilangan) foiz stavkalari xamda tegishli uzgarishlar kiritilishi ko'zda tutilgan suzib yuruvchi stavkalar tushunchalari mavjud.

20. Kredit foiziga ta'sir etuvchi omillar – ularga yuqorida ta'kidlanganidek Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi, talab va taklif, qarzni to'lash muddati va sharti, inflyasiya darajasi, qarz berishning xatar darajasi, qarzga olingan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi va boshqa omillar.

Inflyatsiyaning amaldagi va kutilayotgan darajasidan kelib chiqqan xolda xamda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini , iqtisodiyotning real sektorida investitsion faollikning oshishini yanada rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi 2015 yilning 1 yanvaridan qayta moliyalash stavkasini amaldagi **10 foizdan 9 foizgacha** tushirish bo'yicha qaror qabul qilindi.(BA,2015y,1-son)

21. Kreditning chegaralari – ichki(miqdor jihatdan kreditning har bir shakliga bo'lgan talabga, korxona va xalq xo'jaligining ehtiyojiga va kredit resurslarining mavjudligiga bog'liqligi), qayta taqsimlash(iqtisodiyotda mavjud kredit resurslarining hajmi) va antisinatsiyaviy(kredit yordamida pul jamg'armalarini hosil qilish imkoniyatlarini so'ngi chegarasi sifatida va bu imkoniyat uning barcha shakllarida namoyon bo'ladi).

5.2. Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq

Mijoz bankdan 12 oy muddatga 100 ming so'm kreditni yillik 46 foiz stavka bilan oldi. Uni foydalanishda tegishli oylar o'tgach kreditni foiz stavkasi qancha so'm bo'lishligini aniqlang:

variant	Muddati	Javoblar				
		1	2	3	4	5
1	3 oydan keyin	16500	14500	17500	16400	11499
2	5 oydan keyin	11402	16500	19166.5	15400	17500
3	2 oydan keyin	7666.6	17402	5400	4800	17500
4	10 oydan keyin	38333	1170	601	5400	17520
5	1 oydan keyin	3740	3833.3	2490	5600	3335
6	6 oydan keyin	6520	2442	22999.8	7624	2500
7	8 oydan keyin	28300	31815	22999.8	4120	30666.4
8	9 oydan keyin	2446	22864.9	11746.2	34499.7	5600
9	7 oydan keyin	26833	12442	17641	22452	21400
10	4 oydan keyin	24552	11426	26428	15333	22400

2-topshiriq

Quyidagilar asosida qoplash koeffitsiyenti bo'yicha to'g'ri javobni aniqlang (QK=likvid mablag'lari: qisqa muddatli majburiyatlar)

variant	Likvid mablag'lari	Qisqa muddatli majburiyatlar	Javoblar				
			1	2	3	4	5
1	8	6	1	1.5	2	1.3	1.6
2	14	7	1	1.6	2	1.4	1.7
3	11.2	8	1.1	1.5	2	1.8	1.4
4	16.2	9	1.1	1.5	2	1.4	1.8
5	10.0	5	1.1	1.5	2	1.8	1.4

3-topshiriq

Quyidagi ma'lumotlar asosida likvidlik koeffitsiyenti bo'yicha to'g'ri javobni aniqlang. $[L_k = \text{pul mablag'lari} + \text{yengil sotiladigan talablar}]$: qisqa muddatli majburiyatlar]

variant	Pul mablag'lari	Yengil sotiladigan talabalar	Qisqa muddatli majburiyatlar	Javoblar				
				1	2	3	4	5
1	4	9	2	6.5	5	6	7	5.5
2	16	4	4	6.5	5	6	7	5.5
3	2	9	2	5	6.5	6	5.5	7
4	45	5	10	2	3	4	5	8
5	42	6	6	5	3	2	4	8

4-topshiriq

A. Xo'jalikni yillik balansi (1-shakl) va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl)ga ko'ra quyidagi ma'lumotlar mavjud, ming so'm:

1. O'z mablag'larining manbalari (480 satr)
 - A) ustav kapitali (410 satr)-18990
 - B) rezerv kapitali (430 satr)-210125
 - C) taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar-450 satr)-215411
 - D) maqsadli tushumlar (460 satr)-123
 - E) kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (470)-57
2. Balans aktivi jami (400 satr)-517025
3. Balans aktivi 1-bo'limi jami (130 satr)-327402
4. Uzoq muddatli qarzlar (490 satr)-20
5. Uzoq muddatli kreditlar (570 satr)-22248
6. Pul mablag'lari (50,51,52,55,56,57,58,59 hisob varaqalar-320 satr)-4097
7. Yengil sotiladigan talablar (debetorlik, byudjet, xodimlar, avans bo'yicha va boshqa hisob-kitoblar – 210 satr)-184813
8. Yengil sotiladigan zaxiralar (tugallanmagan ishlab chiqarish, uskuna, tovar-moddiy qiymatlar, tayyor mahsulot zaxiralari va boshqalar-140 satr)-67143
9. Qisqa muddatli majburiyatlar (qisqa muddatli kredit va qarzlar, ta'minot, byudjet tashkilotlari, xodimlar va boshqalar bilan hisob-kitoblar -600 satr)-114159
10. Sotilgan mahsulot qiymati (2-shakl 010-satr)-160760
11. Aylanma mablag'lar yillik o'rtacha qoldigi – 94173
12. Yil bo'yicha kalendar kunlar – 366.

B. Kreditlash Nizomiga ko'ra xo'jalikni kreditlanish qobiliyati bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar klasslari bo'yicha talablar

No	Ko'rsatkichlar	I klass	II klass	III klass	IV klass
1	Qoplash koeffitsiyenti	2 dan oshiq	1-2	0,5-1	0,5 dan past
2	Likvidlik koeffitsiyenti	1,5 dan oshiq	1-1,5	1 dan past	Likvid mablag'lari yo'q
3	Mustaqillik koeffitsiyenti	60 % dan oshiq	30-60 %	30 % dan past	Nolikvid balans

Eslatma: Birinchi klass bo'yicha kreditlash umumiy asosga ega bo'lib qo'shimcha ma'lumot va raschyotlarsiz amalga oshiriladi, ikkinchi klassda qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinishi bilan, uchinchi klassda istisno tariqasida yuqori tashkilot kafolati va yuqori foizlar bilan, to'rtinchi klassda kredit ajratilmaydi (Hukumatning alohida ko'rsatmasidan tashqari).

C. Tegishli ko'rsatkichlarni aniqlash tartibi.

1. O'z aylanma mablag'larining mavjudligi

UAMM=O'z mablag'lari manbai (480 satr)-asosiy va oborotdan tashqari mablag'lar (130-490-570 satrlar) =

$$2. \text{Likvidlik koeffitsienti} = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{yengil sotiladigan talablar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} =$$

$$3. \text{Qoblash koeffitsienti} = \frac{\text{Qisqa muddatli likvid mablag'lar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} =$$

$$4. \text{Mustaqillik koeffitsienti} = \frac{\text{O'z mablag'larining manbalari}}{\text{Balans passivi jami}} =$$

$$5. \text{Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti} = \frac{\text{Sotilgan mahsulot qiymati}}{\text{Aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qoldig'i}}$$

$$6. \text{Aylanmamablag'larning kunlik aylanishi} = \frac{\text{Aylanmamablag'larning yillik o'rtacha qoldig'i} \times K}{\text{Sotilgan mahsulot qiymati}}$$

D. Yuqorida aniqlangan ko'rsatkichlar va ularni tegishli klasslarga mos kelishi asosida xo'jalikni kreditlanish qobiliyatiga xulosa yozing.

5-topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi testlarni yeching:

1. **Kredit munosabatlari rivojlanishining asosiy bosqichlari.**

A) Boshlang'ich shakllanish, tarkibiy rivojlanish, xalqaro miqyosga chiqish

B) Boshlang'ich shakllanish, tarkibiy rivojlanish, maxsus kredit muassasalarini paydo bo'lishi

- C) Boshlang'ich shakllanish, tarkibiy rivojlanish, kredit-moliya tashkilotlarining paydo bo'lishi
D) Boshlang'ich shakllanish, tarkibiy rivojlanish, kredit munosabatlarining takomillashuvi

2. Kreditning shakllari

- A) Tovar, pul va boshqa shakllarda
B) Tovar, chet el valyutasi va boshqa shaklda
C) Pul, moddiy qiymat va tovar shaklida
D) Pul, valyuta va iste'mol qiymat shaklida

3. Kreditning asosiy turlari

- A) Bank, davlat, iste'mol, faktoring, tijorat, lizing
B) Bank, davlat, iste'mol, tijorat, lizing, xalqaro
C) Bank, iste'mol, tijorat, kliring, lizing, xalqaro
D) Tijorat, bank, iste'mol, lizing, xalqaro, qisqa muddatli

4. Qisqa muddatli kreditning asosiy tamoyillari

- A) Qaytarilish, muddatlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik, maqsadlilik, ma'lum tovarga
B) Muddatlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik, maqsadlilik, qaytarilishi, majburiyatlilik
C) Qaytarilish, muddatlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik, maqsadlilik, samaradorlik
D) Samaradorlik, qaytarilish, maqsadlilik, muddatlilik, to'lovlilik, ma'lum sohaga

5. Uzoq muddatli kreditning rasmiylashtirish jarayoni

- A) Buyurtmani ko'rib chiqish, xo'jalik moliyaviy holatini tahlili, loyiha ekspertizasi, shartnoma tuzish
B) Buyurtma berish, moliyaviy holat tahlili, loyiha ekspertizasi, muddatini belgilash
C) Buyurtmani ko'rib chiqish, loyiha ekspertizasi, moliyaviy holat tahlili, foizini belgilash
D) Buyurtmani ko'rib chiqish, subyekt moliyaviy holatini tahlili, loyiha ekspertizasi, kredit summasini aniqlash

6. Oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun mikrokreditlar qaysi byudjetdan tashqari jamg'arma hisobidan amalga oshiriladi:

- A) Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
B) Sobiq Biznes-fond mablag'i hisobiga

- C) Pensiya jamg'armasi
- D) Ish bilan ta'minlash davlat jamg'armasi

7. Kredit resurslarining asosiy turlari

- A) Vaqtincha bo'sh pullar, mehnat haqi, kapitallashtirish mablag'lari, shaxsiy sektor daromadlari, bank mablag'lari
- B) Shaxsiy sektor jamg'armalari, kredit muassasasi mablag'lari, bo'sh pullar, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari
- C) Tovarlarni sotish va moddiy qiymatlar sotib olish jarayonidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'lari, hisoblangan mehnat haqi va uni to'lash jarayonidagi bo'sh pullar, kapitallashuv mablag'lari, shaxsiy sektor jamg'armalari
- D) Maxsus jamg'armalar mablag'lari, taqsimlanmagan foyda, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan mablag'lar, shaxsiy sektor jamg'armalari

8. Tijorat kreditining turlari

- A) Veksel, ochiq schyot, chegirma berish, mavsumiy, shartli
- B) Ochiq schyot, chegirma berish, mavsumiy, konsignasiya, qisqa muddatli
- C) Chegirma berish, veksel, ochiq schyot, mavsumiy, konsignasiya
- D) Mavsumiy, uzoq muddatli, veksel, ochiq schyot, konsignasiya

9. Mikro kredit bankini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qachon qabul qilingan?

- A) 2001 yil 13 fevral
- B) 2006 yil 5 may
- C) 2007 yil 17 sentyabr
- D) 2007 yil 23 oktyabr

10. Respublikamizda 2014-yil holatiga kredit tizimiga kiruvchi nechta tijorat banki mavjud?

- A) 31
- B) 29
- C) 26
- D) 28

11. Kredit foizining asosiy turlari.

- A) Nominal, real, o'zgaruvchi, katiy belgilangan
- B) real, suzib yuruvchi, katiy belgilangan, shartnoma asosida
- C) Nominal, real, katiy belgilangan, suzib yuruvchi
- D) suzib yuruvchi, shartnoma asosida, katiy belgilangan, real

12.Kredit tizimiga kiruvchi asosiy kredit institutlari.

- A) markaziy bank, tijorat banklari, kredit uyushmalari
- B) tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, lonbardlar
- C) markaziy bank, tijorat banklari, maxsus kredit institutlari
- D) Tijorat banklari, maxsus va universal banklar

13.Kredit tizimiga kiruvchi tijorat banklarining ayrim belgilari buyicha guruxlanishi.

- A) mulk shakli, milliy mavkiye va funksiyalariga ko'ra
- B) ustav jamg'armaga ixtisoslashuvi va bajaradigan operatsiyalarining turiga kura
- C) milliy mavkiye, bajaradigan operatsiyalar soni, tijoratlashuv darajasiga ko'ra
- D) mulk shakli, universallashtiruv va funksiyalariga ko'ra

14. O'zbekistonda 2014-yil 1-iyul holatiga nechta lizing beruvchi tashkilot mavjud.

- A) 60
- B) 89
- C) 95
- D) 73

15. Respublikamizda 2014-yilda 1-iyul holatiga lizinga berilgan mol-mulking qiymati YaIM ga nisbatan nechta foizni tashkil etadi?

- A) 0,6
- B) 0,7
- C) 1,0
- D) 1,5

16. 2011, 2012, 2013 yillarda respublikamizda bitta lizing bitimining o'rtacha hajmi, mln so'm.

- A) 77,4; 84,1; 120,3;
- B) 84,1; 120,3; 128,6;
- C) 80,3; 85,2; 84,1;
- D) 84,1; 91,6; 110,7;

17. 2011, 2012, 2013 yillarda lizing xizmatlarida lizing kompaniyalarining ulushi, %

- A) 67,1; 64,4; 70,6;
- B) 32,9; 35,5; 45,3;
- C) 67,1; 70,2; 75,2;
- D) 64,5; 70,6; 76,1;

18. 2014-yil 1-iyul holatiga qaysi tijorat bankining lizing xizmatlarida ulushi yuqori?

- A) Aloqabank
- B) Trastbank
- C) Ipotekabank
- D) Asakabank

19. 2014-yil 1-iyul holatiga qaysi viloyatning lizing bitimlarida ulushi yuqori.

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- C) Toshkent
- D) Farg'ona

6-mavzu: Banklarni kelib chiqishi va bank tizimi. Markaziy bank va uning funksiyalari

6.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha asosiy manbalar

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan banklar va ularni paydo bo'lishi; bank tizimi va uni bir va ikki pog'onaliga bo'linishi; jahon amaliyoti va O'zbekistonda bank tizimi taraqqiyot bosqichlari; iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini takomillashtirish yo'nalishlari; Markaziy bank va uning faoliyati; Markaziy bankning funksiyalari; xorijiy mamlakatlar bank tizimi va ularning ayrimlarida banklar faoliyatining xususiyatlari bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba bank va bank tizimi bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtiradi.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati.

1. Banklar va ularning taraqqiyoti. Hozirgi vaqtda bank deb pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi. Banklarni paydo bo'lishining asosi bo'lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi.

Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Bank so'zi italyanча "banka" so'zidan olingan bo'lib "stol", "Pullik stol" ma'nosini anglatadi.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni "bankcherii" deb atalib, agar puldorlarning qaysi biri ishonchni oqlamasa va ishiga mas'uliyatsizlik qilsa, o' o'tirgan stol sindirib tashlangan va uni "Banko rotto", ya'ni bankrot deb atashgan. Banklar paydo bo'lishining boshlang'ich nuqtasi bo'lib Florensiya va Venesiyada tashkil etilgan kichik jiro-banklar hisoblanadi. Keyinchalik bunday banklar Amsterdamda (1605 y), Gamburgda (1618 y), Milanda, Nyurenbergda, Germaniyada vujudga kelgan. Angliya banki tizim sifatida (XVI asr) yuzaga kelgan va rivojlangan dastlabki banklardan hisoblanadi.

2. Banklarni bozor iqtisodiyotidagi o'rni. Banklar bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi subyekt hisoblanib moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida kapital aylanishining uzluksizligini ta'minlab jamiyatning ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga, jamiyat a'zolari farovonligiga zamin yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi banklar oldiga yangidan-yangi operatsiyalar bajarishni taqozo etadi.

3.Bir va ikki pog'onali bank tizimi. 1987-1988 yillargacha jahon bank amaliyotida banklar sonining nisbatan kamligi mavjud banklarni barchasi ham banklarga tegishli operatsiyalarni bajarganligi tufayli shu davrdagi bank tizimini bir pog'onali bank tizimi deb atalgan.

Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib hamda ko'plab maxsus banklar tashkil etilishi bank tizimini boshqarishda Markaziy bank birinchi pog'onadagi va tijorat banklarini undan keyingi pog'onadagi banklar ekanligini hisobga olib ushbu bank tizimini ikki pog'onali bank tizimi deb atash qabul qilingan.

Xalqaro amaliyotda ikki pog'onali bank tizimi 1987 yilda Vengriyada, 1988 yildan SSSRda, 1989 yildan Polshada va 1990 yildan Bolgariya, Rumiya va Chexoslovakiyada joriy etilgan.

4.Bank tizimi rivojlanishining birinchi davri. Jahon amaliyotida banklar rivojlanishi quyidagi ikki davrga bo'linadi:

1. Birinchi davr – O'zbekiston mustaqillikka erishguncha bo'lgan davr.
2. Ikkinchi davr - O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davr.

Bank tizimi rivojlanishining birinchi davri quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- birinchi bosqich XIX asrning oxiridan 1930-1932 yilgacha bo'lgan davr;
- ikkinchi bosqich 1932 yildan 1959 yilgacha bo'lgan davr;
- uchinchi bosqich 1959 yildan 1988 yilgacha bo'lgan davr;
- to'rtinchi bosqich 1988 yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi.

5.Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri. Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri O'zbekistonda bank tizimining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib o' quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- birinchi bosqich 1991 yildan 1994 yilgacha bo'lgan davr;
- ikkinchi bosqich 1994 yildan 1997 yilgacha bo'lgan davr;
- uchinchi bosqich 1997 yildan 2001 yilgacha bo'lgan davr;
- to'rtinchi bosqich 2001 yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi.

6.O'zbekiston Respublikasida bank tizimi rivojlanishi to'rtinchi bosqichining xususiyatlari.

A) Aholini bank tizimiga bo'lgan ishonchini ortishi. Aholining banklardagi pul jamg'armalari 2001 yilni boshiga 91,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda yangi omonat turlari, ular bo'yicha foiz stavkalarini oshirilishi va boshqa xizmat turlarini yaxshilanishi hisobiga 2013 yilni boshiga 6,2 mlrd so'mni tashkil etib shu davrda 67,8 martaga oshdi.

B) Tijorat banklarining xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes subyektlariga ko'rsatgan yordami ortdi. Kichik biznes subyektlarining soni 1.01.2003 yilga 76 mingtadan 2013 yilni boshiga 164 mingtaga, 2014 yilni boshiga 190 mingtaga(dehqon va fermer xo'jaliklarsiz) ortdi. Kichik biznes subyektlariga barcha manbalar hisobidan tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar 2003 yilda 282,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda 9,0 trln so'mni tashkil etgan yoki 31,9 barobarga oshdi.

C) Valyuta munosabatlarini erkinlashtirish bo'yicha ishlar jadallashtirildi va 2003 yilni 15 oktyabridan boshlab joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'mning erkin almashtirilishi joriy etildi. Shu va valyuta tizimidagi boshqa o'zgarishlarni hisobga olib O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirishlar kiritildi va boshqalar. Ushbu qonunning 7-moddasida so'mning erkin almashtirilishi joriy etilgan xalqaro joriy operatsiyalarning tarkibi berilgan.

7.Markaziy bank va uning taraqqiyoti. Markaziy bank kredit tizimining bosh banki bo'lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonini olib boradi. Birinchi markaziy banklar bundan qariyb uch yuz yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Shunday banklar jumlasiga 1668 yilda tashkil etilgan Shved Riks Jiro banki, 1694 yilda tashkil etilgan Angliya Markaziy banklarini kiritish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki 1992 yilni sentyabr oyida sobiq SSSR davlat bankining Respublika bo'limi zaminida paydo bo'lgan.

Jahon amaliyotida Markaziy banklar quyidagi ikki yo'l bilan tashkil etilgan:

1. Uzoq davr mobaynida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida ularni Markaziy bankka aylanishi.

2. Bir yo'la Markaziy bank sifatida tashkil etish.

8.O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi va mustaqilligi. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga binoan Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutani barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu qonunning 6-moddasiga binoan Markaziy bankning mustaqilligi quyidagilarda ko'rinadi:

- Markaziy bank hukumatning iqtisodiy siyosati chegarasida faoliyat ko'rsatadi. Markaziy bank hukumat siyosatidan o'tib o'zining alohida siyosatini yurgizmaydi.
- Markaziy bankning mustaqilligi unga yuklatilgan vazifalar chegarasida amalga oshadi. Bu mamlakatdagi pul-kredit siyosatini belgilashda, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda, bank likvidligi nisbati, almashuv kurslarini belgilash bilan bog'liq boshqa ishlarda ko'rinadi.

9.O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy funksiyalari. Markaziy bank to'g'risidagi qonunning 44-moddasiga binoan Markaziy bankning asosiy funksiyalari quyidagilar:

1. Pul emissiyasi
2. Tijorat banklari kassa rezervlarini to'plash va saqlash
3. Oltin-valyuta zaxiralarini saqlash
4. Tijorat banklarini kreditlash
5. Davlat banki sifatida hukumat uchun kredit berish va hisob-kitob operatsiyalarini bajarish
6. Hisob-kitob va almashuv operatsiyalarini amalga oshirish
7. Pul-kredit siyosatini olib borish
8. Banklar faoliyatini nazorat qilish.

10.Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari.

- iste'mol narxlar indeksining yillik o'sish darajasi;
- yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi;
- davlat byudjeti taqchilligi darajasi;
- muomaladagi pul mablag'lari miqdori;
- bank kreditlari, foiz stavkalari;
- valyuta kursi, to'lov balansi holati va boshqalar.

11. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi – “Markaziy bank to'g'risida”gi qonunning 8-moddasiga binoan Markaziy bank Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti, viloyat markazlari va Toshkent shahrida Bosh boshqarma va xizmat bo'limlariga ega.

12. Markaziy bankning Oliy Organi – “Markaziy bank to'g'risida”gi qonunning 15-moddasida ta'kidlanganidek Markaziy bankning Oliy Organi bo'lib bank boshqaruvi hisoblanadi. Bank Boshqaruvi 11 kishidan iborat bo'lib uning tarkibiga Markaziy bank raisi, uning muovinlari va bank asosiy bo'limlari boshliqlari kiradi. Bank Boshqaruvining raisi bo'lib Markaziy bank raisi hisoblanadi. Boshqaruv a'zolari Markaziy bank raisi tavsiyasiga binoan Oliy Majlis kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

13. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida bank tizimi faoliyatining takomillashtirish yo'nalishlari:

- Bank bo'yicha me'yoriy-uslubiy bazani yanada takomillashtirish;
- Banklar resurs bazasini aktivlar sifatini yaxshilagan holda ko'paytirish;
- Tijorat banklari faoliyatini baholash va tashkil etishning hozirgi davr tizimlarini joriy etish;
- Tijorat banklari investitsiya aktivligini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash;
- Mikromoliyalash sohasini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish;

- Bazel qo'mitasi talablari asosida banklar moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish;
- Yangi qarashlarni shakllantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish;
- Hisob va hisobotni takomillashtirish;
- Tijorat banklarni yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash.

14.Markaziy bankning tijorat banklari bilan o'zaro aloqalari.

Ushbu aloqalarga "Markaziy bank to'g'risida"gi qonunning 55-60 moddalari bag'ishlangan bo'lib ularda Markaziy bank mamlakatining bosh banki sifatida tijorat banklari faoliyati ustidan rahbarligi, nazorati va talablari bayon etilgan. Tijorat banklari faoliyatini Markaziy bank tomonidan nazorat qilish zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bankning muhim rol o'ynashi bilan asoslanadi, chunki u iqtisodiyot bilan bank tizimi o'rtasida vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

15.Bank nazoratini maqsadi va uni amalga oshirish.

1. Mijozlar manfaatini har xil mumkin bo'lgan xatarlardan himoya qilish.
2. Xatarlarni oldini ola turib moliyaviy bozorning barqarorligini ta'minlash.

Markaziy bank tijorat banklar faoliyatini nazorat qilishi quyidagilarda ko'rinadi:

- bank faoliyatini boshlash uchun lesenziyalar berish;
- banklar hisobotlarini tekshirish;
- joylarda tekshirishlar o'tkazish;
- bank operatsiyalarini bajarishda tegishli me'yorlarga rioya qilinishini tekshirish.

16. Xorijiy mamlakatlar bank tizimi va ularning xususiyatlari.

Hozirgi vaqtda deyarli barcha mamlakatlarda bank tizimi Markaziy bank tomonidan boshqariladi. Shuning bilan birga tijorat banklari faoliyatida ayrim xususiyatlar mavjud. Jumladan, Islom taraqqiyot banki kreditlari eng past foizlarda(yillik 5-6%, chunki Qur'onda sudxo'rlik bilan shug'ullanish ta'qiqlanadi) bo'lib undan kelgan daromad faoliyat xarajatlarni qoplashni ko'zda tutadi.

Chexiya banklari mijozlarga hisob varaqlardagi pullarni uyiga yetkazib beradi. Bunda banklar aloqa bo'limlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Buning uchun mijoz tegishli markazga qo'ng'iroq qilib pulni qayerga yetkazib berishligini buyurtma berishi kerak(BPK jurnali 2014 yil 6-son 70 bet) va boshqalar.

6.2. Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq

Quyidagilarni tegishli guruhlarga ajrating.

T/r	Yozuvlar mazmuni	Bank ti-zimi	Markaziy bank fao-liyati	Markaziy bank funksiyasi
1	2	3	4	5
1	Dastlabki banklarni paydo bo'lishi			
2	Pul-kredit siyosati			
3	Angliya bank tizimini paydo bo'lishi			
4	Bank taraqqiyoti davrlari			
5	Markaziy banklarni vujudga keli-shi yo'llari			
6	Bank taraqqiyoti bosqichlari			
7	Markaziy bankni mustaqil ekanli-gi			
8	Banknotalar emissiyasi			
9	Markaziy bankning oily organi			
10	Tijorat banklar kassa rezervlarini to'plash va saqlash			
11	Markaziy bankni Bosh Boshqar-masi			
12	Tijorat banklarini kreditlash			
13	Markaziy bankning bosh maqsadi			
14	Oltin-valyuta zahiralarini saqlash			
15	Hukumat uchun kredit berish va hisob-kitob muomalalarini baja-rish			
16	O'zbekiston bank taraqqiyotining IV bosqichi xususiyatlari			
17	Banklar faoliyati nazorati			
18	Bankrot so'zining banklar faoli-yatiga tegishliligi			
19	Valyuta kurslarini belgilash va va-lyuta almashuvi muomalalari			
20	Dastlabki Markaziy bankning paydo bo'lishi			

2-topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi testlarni yeching.

1. Dastlabki bank tizimi paydo bo'lgan mamlakat?

- A) Vengriya
- B) Italiya
- C) Angliya
- D) Genuya

2. Markaziy bankning bosh maqsadi.

- A) Milliy valyutani barqarorligini ta'minlash
- B) Aholini o'z vaqtida naqd pul bilan ta'minlash
- C) Banklar faoliyatini tartibga solish
- D) Pul muomalasini tartibga solish

3. Markaziy bank, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xususiy banklarni tashkil etish to'g'risidagi Farmoni va bank tizimini va moliyaviy barkarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorini sanalari

- A) 1991, 1995, 2005 yil 15 aprel, 2007 yil 12 iyul
- B) 1995, 1996, 2007 yil 24-aprel, 2010 yil 6-aprel
- C) 1996, 2002, 2007 yil 24 aprel, 2007 yil 12 iyul
- D) 1992, 2007, 2005 yil 15 aprel, 2008 yil 21 iyun

4. 2011 yilni 1 yanvaridan O'zbekistonda yangi tuziladigan va faoliyat ko'rsatayotgan tijorat va xususiy banklar Ustav kapitalining eng kam miqdoriga bo'lgan talab, mln.yevro.

- A) 1,5; 5,0
- B) 5,0; 2,5
- C) 3,0; 1,5
- D) 10,0; 5,0

5. Banklar taraqqiyoti nechta davrga bo'linadi?

- A) Ikki davrga
- B) To'rt davrga
- C) Uch davrga
- D) Davrlarga bo'linmaydi

6. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi taraqqiyoti bosqichlari.

- A) 1991-1994, 1994-1996, 1997-2001, 2001 yildan
- B) 1992-1994, 1995-1996, 1997-200, 2002 yildan

- C) 1990-1992, 1993-1994, 1995-2001, 2002 yildan
D) 1992-1993, 1994-1995, 1996-2002, 2003 yildan

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tijorat banklari tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining sanasi.

- A) 1997 yil 24 aprel
B) 2001 yil 10 sentyabr
C) 2007 yil 7 noyabr
D) 2005 yil 15 aprel

8. Jahon amaliyotida banklar taraqqiyotining qaysi bosqichida ikki pog'onali bank tizimiga o'tilgan.

- A) I - bosqich
B) III - bosqich
C) IV - bosqich
D) II - bosqich

9. Dastlabki Markaziy bank qachon va qayerda paydo bo'lgan.

- A) 1668 yil, Shvesiya
B) 1694 yil, Angliya
C) 1848 yil, Fransiya
D) 1875 yil, Germaniya

10. O'zbekiston Respublikasida 2014-yil boshiga kancha tijorat banklari mavjud.

- A) 30
B) 29
C) 26
D) 31

11. Banklar kapitali yetarliligini nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi qachon va qayerda tashkil etilgan.

- A) 1988, Shvesiya
B) 1975, Shvesariya
C) 2001, Angliya
D) 1990, AQSh

12. Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan bank tizimi kapitalining yetarlilik koeffitsiyentining minimal miqdori va O'zbekiston tijorat banklarining bu bo'yicha 2013 yilda erishgan ko'rsatkichi.

- A) 0,08; 0,20
B) 0,10; 0,25
C) 0,08; 0,24
D) 0,11; 0,15

13. Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy ko'rsatgichlari

- A) Yalpi ichki maxsulot usishi, inflyasiya darajasi, byudjet taqchilligi,
- B) Yalpi ichki maxsulot usishi, inflyasiya darajasi, axoli daromadlarini usishi
- C) Yalpi ichki maxsulot usishi, inflyasiya darajasi, banklar kapitallashuvini oshishi
- D) Yalpi ichki maxsulot usishi, inflyasiya darajasi, bank aktivlari barkarorligi

14. Respublikamiz Prezidenti tomonidan-....., banklar yirik investisiya institutlariga aylanishi darkor'' deb ko'yilgan vazifa qaysi sanaga tegishli

- A) 2009 y. 21 yanvar
- B) 2010 y. 29 yanvar
- C) 2011 y. 20 fevral
- D) 2010 y. 7-dekabr

15. O'zbekiston Respublikasida aholini bank tizimiga ishonchini oshirish, xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank yordamini oshirish, valyuta erkinlashuvini jadallashuviga bank taraqqiyotining qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?

- A) birinchi bosqich
- B) uchinchi bosqich
- C) to'rtinchi bosqich
- D) ikkinchi bosqich

16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining funksiyalari "Markaziy bank to'g'risida"gi qonunning qaysi moddasida berilgan?

- A) 3-modda
- B) 44-modda
- C) 8-modda
- D) 6-modda

17. Xorijiy mamlakatlarning qaysi banki eng past foizlarda kredit beradi?

- A) Osiyo taraqqiyot banki
- B) Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
- C) Islom taraqqiyot banki
- D) Xitoy taraqqiyot banki

18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qachon tashkil etilgan?

- A) 1991-yil, oktyabr
- B) 1996-yil, may
- C) 2005-yil, dekabr
- D) 1992-yil, sentyabr

7-mavzu: Tijorat banklari, ularning funksiyalari va operatsiyalari

7.1 Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha asosiy manbalar

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan Tijorat banklarining tashkil etilishining iqtisodiy va huquqiy asoslari; tijorat banklarining turlari; aksioner banklar, ularni ochiq va yopiq turlari; banklarni boshqaruv organlari; tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha iqtisodiy me'yorlar; banklar kapitalini yetarliligi, bank balansi likvidligi va boshqa me'yorlar; tijorat banklari faoliyati tamoyillari; banklarning funksiyalari; tijorat banklarining aktiv, passiv, depozit va boshqa operatsiyalari; banklarning kreditlash jarayoni bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba tijorat banklari bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtiradi.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati.

- 1. Tijorat banklari tashkil etilishining iqtisodiy va huquqiy asoslari** – Mamlakatimizda tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi pog'onasi hisoblanadi va ular o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi. Tijorat banklari o'z faoliyatini “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida” gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida” gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida” gi va boshqa qonunlar hamda banklar bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshiradi. Iqtisodiy jihatdan, tijorat banklar kapitalining hozirgi vaqtdagi miqdori 10 mln. evro, xususiy banklar kapitali 5 mln. evro ekvivalentidan kam bo'lmasligi belgilangan.

Umuman hozirgi vaqtda, banklar Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvardagi yig'lishida ta'kidlaganidek – “Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi qat'iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo'lib, ayni paytda u belgilangan qator normativlar bo'yicha mustahkam poydevorga ega”.

- 2. Tijorat banklarini tashkil etishda ular ustav kapitali hajmiga bo'lgan talablar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrda “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga binoan 2008 yilni 1 yanvaridan yangi tashkil etiladigan tijorat banklarining ustav kapitali 5 mln yevrodan, xususiy banklarni ustav kapitali 2,5 mln yevrodan

kam bo'lmagan miqdorga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu me'yor Respublika Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi PQ-1317-sonli qaroriga asosan mutanosib ravishda 10 va 5 mln. evroga oshirilgan.

3. Tijorat banklar faoliyatining tamoyillari. Tijorat banklarining faoliyati quyidagi **tamoyillarga** asoslanadi:

- Kredit resurslarini tashkil etishda chetdan jalb qilingan resurslarga tayanish;
- Mavjud mablag'lar chegarasida xizmat ko'rsatish;
- Bank faoliyatining to'la iqtisodiy mustaqilligi;
- Banklar faoliyatini tijoratlashuvi;
- Mijozlar manfaatini himoyalash;
- Banklar faoliyatining universallashtiruvchi va diversifikatsiyasi;
- O'zaro manfaatdorlik;

4. Tijorat banklarining funksiyalari.

1. Huquqiy va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini yig'ish;
2. Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;
3. Xo'jalik subyektlarini kreditlash, ichki va tashqi xo'jalik oborotiga kredit-moliya xizmatini ko'rsatish;
4. Moliyaviy va moddiy qiymatliklar saqlanishini ta'minlash;
5. Mijozlar mulkini ishonchli boshqarish (factoring, trust va boshqa operatsiyalar);
6. Moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;
7. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish, maslahat xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

5. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari. Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar (qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish, har xil fondlarni tashkil qilish, depozit operatsiyalarini amalga oshirish) **banklarni passiv operatsiyalari** deyiladi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalar **banklarni aktiv operatsiyalari** deyiladi.

6. Tijorat banklarining depozit va nodepozit operatsiyalari. Tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini bankga jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalar **depozit operatsiyalari** deyiladi. Ushbu operatsiyalar toifasiga ko'ra, mablag'larni olish shakliga ko'ra tegishli guruhlariga bo'linadi. Tijorat banklarining **nodepozit operatsiyalari** deb tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablag'larini jalb qilish, qimmatli qog'ozlarni muomalaga qo'yish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish sohasidagi operatsiyalar kiradi.

7. Tijorat banklarining boshqa operatsiyalari – bunday operatsiyalarga bank xizmatlari va vositachilik (factoring, trust, tratta va boshqalar) kabi operatsiyalar kiradi.

- 8. Tijorat banklari o'z faoliyati bo'yicha** (o'z xodimlariga mehnat haqi hisoblash, o'z asosiy va aylanma mablag'laridagi o'zgarishlar va boshqalar) operatsiyalari.
- 9. Tijorat banklari tarkibi** – tijorat banklari Markaziy bank litsenziyasi asosida tashkil etiladi va hozirgi vaqtda mamlakatimizda 3 ta davlat tijorat, 13 ta aksioner tijorat, 7 ta xususiy va 3 ta chet el sarmoyasi bilan banklar mavjud. Ushbu banklarni 2013 yilni boshiga 955 ta filiali va boshqa bo'linmalari mavjud. Respublikamiz aholisini bank muassasalari bilan ta'minlashda yetakchi o'rinda turadi. Jumladan, Xalqaro Moliya Korporatsiyasining 2012 yilga bo'lgan ma'lumoti bo'yicha har 100 ming katta yoshdagi aholi hisobiga Yaponiyada 33,9, Rossiyada 38,2, AQSHda 35,3 Koreyada 28,4, Armanistonda 20,9, Malayziyada 19,9, Turkiyada 18,7, Hindistonda 11,4 bank muassasasi to'g'ri kelgani holda O'zbekistonda bu ko'rsatkich 49,7 ni tashkil etadi (BPK jurnali, 2014 yil 9-son, 32-bet).
- 10. Aksioner banklar** – banklar, odatda, mulkchilikning har qanday shaklida ham, aksionerlik jamiyati shaklida ham tashkil etiladi va ular ochiq va yopiq turlarga bo'linadi.
Ochiq turdagi aksioner banklarni tuzish chog'ida aksiyalarga ochiq yozilish yo'li bilan tarqatiladi. Yopiq turdagi aksioner banklarni tashkil etishda aksiyalar oldindan belgilangan ta'sischi o'rtasida taqsimlanadi.
- 11. Tijorat banklarining boshqaruv organi** – O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida” gi Qonunning 22 – moddasiga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruv organi hisoblanadi. Markaziy bank qonun hujjatlari-ga muvofiq tijorat banklar faoliyatini nazorat qilib boradi. Markaziy bank tijorat banklaridan axborot berishni talab qilishga va qonun hujjatlari asosida boshqa ishlarni amalga oshirishga haqli.
- 12. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan iqtisodiy me'yorlar.**
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni xalqaro andozalarga mos ravishda takomillashtirish hamda tijorat banklarini moliyaviy holatiga real baho berishni 1997 yil 22 avgustda tasdiqlangan 10-sonli “Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidalari” asosida olib boradi. Ushbu qoidalarga ko'ra respublika tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning quyidagi me'yorlari tasdiqlangan:
1. Yangidan tashkil etilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan banklarning ustav jamg'armasi eng kam miqdorini o'rnatish;
 2. Kapitalning yetarlilik koeffitsienti;

3. Bank kapitali bilan uning majburiyatlari o'rtasidagi nisbat ko'rsatkichlari;
4. Bank balansi likvidligi ko'rsatkichi;
5. Bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan xatarning eng kam hajmi;
6. Barcha katta kreditlarga to'g'ri keladigan xatarning eng yuqori hajmi;
7. Bir omonatchiga to'g'ri keladigan xatarning eng katta miqdori;
8. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarda o'z mablag'laridan foydalanish ko'rsatkichi;
9. Daxldor shaxslar bilan ish olib borish.

13. Bank tizimi faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan iqtisodiy choralar.

Markaziy bank mamlakatning bosh banki, rahbar banki sifatida tijorat banklari faoliyatida ayrim buzilishlar, kamchiliklar sodir bo'lganda quyidagi iqtisodiy choralarni qo'llaydi:

1. Banklar faoliyatini baholashda qo'llaniladigan iqtisodiy me'yorlarga o'zgarishlar kiritish;
2. Majburiy rezerv stavkasini oshirish;
3. Ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishni ta'qiqlash;
4. Hissadorlarga dividendlarni to'lashni to'xtatib qo'yish;
5. Bank ustidan vasiylik o'rnatish;
6. So'nggi chora – ularni litsenziyadan mahrum etish.

14. Tijorat banklarining faktoring operatsiyasi – factoring inglizcha vositachi, dallol, makler yoki moliyaviy agent degan ma'nolarni anglatadi. Boshqacha aytganda bu o'z mijozidan uning kontragenti talabini sotib oladigan moliyaviy agent. Hozirda faktoring biznesi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Germaniyada yirik tijorat banklarining mijozlarga ko'rsatadigan xizmatlar soni 300 dan oshib ketdi. (BPK jurn. 2013 y., 7- son, 14-16 betlar).

O'zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 3 avgustda 953-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan tartibga solinadi.

Faktoring operatsiyalari ikki tomonlama o'zaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi:

- Moliyaviy agent yoki tijorat banki;
- Tovar yetkazib beruvchi kreditor.

15. Trast operatsiyasi – bank yoki trast kompaniyalarining mijoz topshirig'I bo'yicha mijozni mulkini (pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va bosh-

qalar) saqlash, ular bo'yicha bank operatsiyalarini o'tkazish, boshqarish huquqini o'z zimmasiga olishdir.

16. Tratta - italyancha o'tkazma vekselni anglatib kreditorlarning qarzdorga (odatda bankga) yozma buyrug'i bo'lib u tashqi savdodagi hisob-kitoblarda qo'llanilib, unda bankning uchinchi shaxs (taqdimchi) ga yoki trattani taqdim etganga muayyan so'mmani to'lash ko'rsatiladi.

17. Tijorat banklari faoliyatini to'xtatilishi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunning 19-moddasiga binoan tijorat banklari quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi:

- Aksiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra;
- Litsenziya qaytarib olinganda;
- Bank bankrot deb e'lon qilinganda.

7.2 Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.

1– topshiriq

Quyidagi operatsiyalar tijorat banklari bajaradigan operatsiyalarning qaysi guruhiga tegishliligini aniqlang.

T/r	Operatsiya mazmuni	Summa	Shundan			
			Aktiv operatsiyalar	Passiv operatsiyalar	Bank xizmati va vositachilik	O'z faoliyati bo'yicha
1	Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishdan foyda	415000				
2	Bank foydasidan ustav fondiga ajratildi	1200000				
3	"Sharq" x/f.ning vaqtinchalik bo'sh pullari kreditga jalb qilindi	1600000				
4	Bank tomonidan tovarlar qiymatining 60% i to'landi	314200				
5	Qimmatbaho qog'ozlar kreditning ta'minlanishi bo'yicha qabul qilinib ssuda berildi	390000				

6	Qimmatbaho qog'ozlar bank hisobiga sotib olindi	600400				
7	“Samat” hissadorlik jamiyatiga qisqa muddatli ssuda berildi	500700				
8	“Viktor” hissadorlik jamiyatidan qimmatli qog'ozlarni saqlaganligi bo'yicha ishonch (trast) operatsiyalar uchun daromad qilindi	150000				
9	Bank factoring operatsiyalari uchun daromadga ega bo'ldi	120000				
10	Bank lizing operatsiyalari uchun daromadga ega bo'ldi	443000				
11	Bank tomonidan aksiyalar chiqarilib sotildi	670000				
Jami						

2-topshiriq

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud: 1-yanvar holatiga, mlrd. so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2009	2010	2011	2013
1	Bank aktivlari	12065	15703	20740	43900
2	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish, %				
3	Bank kapitali	2104	3010	4100	6500
4	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish, %				
5	Bank kapitalining yetarlilik koeffitsienti				

Manba: BPK jurnali 2011 yil 1-son 18-19 betlar, BA 2014 yil 3-4 sonlar

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida aniqlang:

- Bank aktivlari va kapitalining o'tgan yillarga nisbatan o'zgarish darajasini;
- Bank kapitalining yetarlilik koeffitsienti;
- Bajarilgan hisoblashlar asosida xulosa yozing.

3-topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi testlarni yeching.

1. **Banklar va bank faoliyati to'rg'risidagi qonunni qabul qilinish sanasi**
 - a) 1994 yil 1 iyul
 - b) 1995 yil 21 dekabr
 - c) 1996 yil 25 aprel
 - d) 1997 yil 24 aprel
2. **O'zbekiston Respublikasida 2013 yil boshiga tijorat banklarning filial va boshqa bo'linmalarining soni**
 - a) 829
 - b) 955
 - c) 1016
 - d) 970
3. **Qaysi sanadan boshlab tijorat banklar kapitalining eng kam miqdori 10 mln yevro hajmida belgilangan**
 - a) 2011 yil
 - b) 2010 yil
 - c) 2008 yil
 - d) 2013 yil
4. **Markaziy bankning 1997 yil 22 avgustdagi "Tijorat banklar faoliyatini tartibga solish qoidalari" da tijorat banklar faoliyatini baholash me'yorlarning soni**
 - a) 12
 - b) 10
 - c) 11
 - d) 9
5. **4 - banddagi me'yoriy hujjatga ko'ra tijorat banklar faoliyati baholashning "Bank balansi likvidligi" ko'rsatkichi nechta ko'rsatkichga bo'linadi**
 - a) 2
 - b) 3
 - c) 4
 - d) 6
6. **Tijorat banklarning tamoyil va funksiyalarning har biri nechta turdan iborat**
 - a) 8
 - b) 4

- c) 7
- d) 5

7. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish tijorat banklarining qaysi operatsiyalariga kiradi

- a) Aktiv
- b) Passiv
- c) Nodepozit
- d) O'z faoliyati operatsiyalari

8. Faktoring va trast operatsiyalari tijorat banklarining qaysi operatsiyalariga kiradi

- a) Passiv
- b) Nodepozit
- c) Aktiv
- d) Boshqa operatsiyalar

9. Tijorat banklar tomonidan 2012 va 2013 yillarda ajratilgan jami kreditlar miqdori, mlrd, so'm

- a) 15651; 20400
- b) 20392; 26500
- c) 11539; 20329
- d) 22413; 27392

10. Tijorat banklarining 2012 va 2013 yillar umumiy kapitalining hajmi, mlrd, so'm

- a) 5200; 6500
- b) 3800; 4100
- c) 6100; 5700
- d) 6800; 7010

8-Mavzu: Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari

8.1 Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha manbalar

Mavzu bo'yicha talaba fan dasturiga asosan kredit uyushmalari, lombardlar, mikromoliyaviy tashkilotlar; kredit uyushmalari va lombardlarni vujudga kelish tarixi; kredit uyushmalarining xalqaro tashkiloti; lombardlar faoliyatining xususiyatlari; mikromoliya tashkilotlarining tarkibi; iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida nobank kredit tashkilotlarining rivojlanish yo'nalishlari, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiyotidagi o'рни bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Talaba yuqoridagi tushunchalarni nobank kredit tashkilotlari bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtirishi lozim.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati:

- 1. Mikromoliyaviy tashkilotlarning paydo bo'lishi** –ular tarixiga ko'ra dastlab XIX asrning ikkinchi yarmida kredit kooperativlari o'zaro yordamning tashkiliy-huquqiy shakli sifatida qishloq xo'jalik kooperativlari shaklida Germaniyada tashkil etilgan. XX- asr boshida Yevropada kredit kooperativlari AQSH, Kanada taraqqiy etib Janubiy Amerika davlatlarida taraqqiy eta boshlagan.

O'zbekistonning bu bo'yicha birinchi qadamlaridan biri bo'lib 2002 yilni 4 aprelida "Kredit uyushmalari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi hisoblangan. Ushbu qonuni 2006 yilni 24 yanvarida ayrimo'zgartirishlar kiritilgan.

- 2. Kredit uyushmasi** – O'zbekiston Respublikasining "Kredit uyushmalari to'g'risida" gi qonunning 3-moddasiga ko'ra "Kredit uyushmasi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kreditlar berish maqsadida ixtiyoriy teng huquqli a'zolik asosida tuziladigan kredit tashkilotlari deb e'tirof etiladi".
- 3. Kredit uyushmalarining boshqaruv organi** – uyushma a'zolarining umumiy yig'ilishi.
- 4. Kredit uyushmalarining banklardan farqi** – ularning maqsadi katta foyda olish emas, balki o'z a'zolarining biznesini rivojlantirishga past foizda kredit-moliya yordami ko'rsatish.
- 5. Kredit uyushmalarining xalqaro tashkiloti**– bu WOCC Ibo'lib unga 96dan ortiq mamlakatdagi 32 mingdan ortiq kredit uyushmalari a'zo. Ushbu tashkilot 1948 yildan beri mavjud bo'lib har yilni 20 oktabr kuni xalqaro kredit tashkilotlari kuni sifatida nishonlanadi.

6. O'zbekistondagi birinchi kredit uyushmasi – Samarqandda 2002 yilda tuzilgan Sherdor kredit uyushmasi hisoblanadi.

7. Lombardlar (garovxona) – mikromoliyaviy tashkilotlarning bir shakli bo'lib ko'chmas mulklarni garovga qo'yib, kredit berish bilan shug'ullanadigan kredit muassasasi hisoblanadi. Lombardlar birinchi marta XV asrda Fransiyaning Lombardiya viloyatida tashkil topgan. Lombardlar faoliyatiga ko'ra buyumning qiymati tomonlarining kelishuviga ko'ra baholanib garovga qo'yilgan buyumning egasiga tilxat beriladi. Garovxonaga buyumlar faqat mablag' olish uchun emas, balki ularni ishonchli saqlanishini ta'minlash uchun ham qo'yiladi.

Kreditlarning foiz stavkalari, shuningdek, olingan kreditning vaqtida qaytarilmaganligi uchun jarima miqdori har bir kechiktirilgan kun uchun lombardlarning yuqori organi tomonidan belgilanadi.

Lombardlar faoliyatining o'ziga xosligi shundaki – kredit stavkalarining qisqa muddatga belgilanishi, aktivlarni tezkor darajada aylanishi asosida ularni yuqori daromadlilik hisoblanadi.

8. Boshqa mikromoliya tashkilotlari – mikrokredit, mikroqarz va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar.

9. O'zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy tashkilotlarning tarkibi – Respublikada 2011 yilni boshiga 209 ta nobank kredit tashkilotlari mavjud bo'lib, ular jumlasiga 116 kredit uyushmalari, 58 lombard, 35 mikromoliya tashkilotlari kiradi.

10. Nobank kredit tashkilotlarning rivojlanish yo'nalishlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda PQ-1438-sonli “2011-2015 yillarda Respublika Moliya-bank tizimi yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi qarori asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bank tizimi shu jumladan nobank kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar quyidagilar:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini 2011-2015 yillarda 2,7 barobar oshirish;
- Xalqaro moliya muassasalari va xorijiy mamlakatlar hukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar hamda kredit liniyalari miqdorini oshirish;
- Tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armalarini tashkil etish, jamgarma mablag'larni uzoq hamda borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek, aholi zich yashovchi hududlarda faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash uchun safarbar etish;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash hajmini oshirib borish;

- Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilish uchun aholiga iste'mol kreditlari berishni yanada oshirish va boshqalar.

8.2 Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq

O'zbekiston Respublikasi nobank kredit tashkilotlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud:

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2011 yil	2013 yil	2013 yilni farqi	
				Absolyut holda	Foizda
1	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning hajmi, mlrd. so'm	3690	6900		
2	Shundan: nobank kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi, mlrd. so'm	613.3	1135		
3	KB va XT subyektlariga ajratilgan kreditlarda nobank kredit tashkilotlarining salmog'i: %			X	X
4	Nobank kredit tashkilotlarining soni	209	201		
	Shundan: kredit uyushmalari	116	131		
	Lombardlar	58	44		
	Boshqa mikromoliyaviy tashkilotlar	35	26		

Manba: www.biznesinfo.uz, www.cbu.uz

Talab qilinadi:

1. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida absolyut va nisbiy farqlarni aniqlash;
2. Bajarilgan hisob-kitoblar bo'yicha xulosa yozish.

2-Topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi test savollarini yeching

- 1. Kredit uyushmalari va lombardlar qanday tashkilotlar jumlasiga kiradi?**
 - a) Bank tashkilotlar
 - b) Moliya tashkilotlar
 - c) Pudrat tashkilotlar
 - d) Nobank kredit tashkilotlari
- 2. Nobank kredit tashkilotlari tarixan qaysi nom bilan tashkil etilgan?**
 - a) Qishloq xo'jalik kooperativlari
 - b) Kredit kooperativlari
 - c) Qishloq xo'jalik artellari
 - d) Mikromoliyaviy tashkilotlar
- 3. O'zbekiston Respublikasida "Kredit uyushmalari to'g'risida"gi qonun dastlab qachon qabul qilingan?**
 - a) 2006 yil 6 may
 - b) 2002 yil 4 aprel
 - c) 2002 yil 30 mart
 - d) 1996 il 24 yanvar
- 4. O'rta Osiyo respublikalarining qaysinisining poytaxtida va nechanchi yilda kredit uyushmalarining jahon tashkiloti rahbarligida xalqaro konferensiya o'tkazilgan?**
 - a) Toshkent, 2001 yil
 - b) Dushanbe, 2002 yil
 - c) Beshkek ,2003 yil
 - d) Ashhabad,2005 yil
- 5. O'zbekiston Respublikasida birinchi tashkil etilgan kredit uyushmasi?**
 - a) Sherdor, Samarqand
 - b) Ishonch , Jizzax
 - c) Tayanch, Namangan
 - d) Baraka, Toshkent
- 6. O'zbekistonda ilk bor lombardlar reytingi aniqlangan sana?**
 - a) 2000y
 - b) 2012y
 - c) 2009y

d) 2011y

7. O'zbekistonda 2011 yilni boshiga kredit uyushmalar, lombardlar va boshqa mikromoliya tashkilotlarining soni?

- a) 116,48,30
- b) 126,68,35
- c) 116,58,35
- d) 133,50,40

8. Kredit uyushmalarining yuqori boshqaruv organi?

- a) Uyushma a'zolarining umumiy yig'ilishi
- b) Ta'sischiilar yig'ilishi
- c) Markaziy bank
- d) Banklar assotsiatsiyasi

9. O'zbekistonda kredit uyushmalari assotsiatsiyasi qachon tuzilgan?

- a) 2003 y
- b) 2010 y
- c) 2005 y
- d) 2008 y

10. Nobank kredit tashkilotlari asosan qaysi sohaga kredit yordami ko'rsatishga qaratilgan?

- a) Jismoniy shaxslar
- b) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
- c) Xizmat ko'rsatish sohasi
- d) Savdo va umumiy ovqatlanish

11. Lombardlar dastlab qaysi mamlakatda tashkil topgan?

- a) Italiya
- b) Germaniya
- c) Angliya
- d) Fransiya

12. Lombardlar faoliyati boshqaruvining yuqori organi?

- a) Direktorat
- b) Lombardlar birlashmasi
- c) Banklar assotsiatsiyasi
- d) Umumiy yig'ilish

- 13. Lombardlarning yuqori daromadliligi qanday omillar bilan bog'liq?**
- a) Kredit stavkalarining qisqa muddatliligi
 - b) Aktivlarni tezkor daromada aylanishi
 - c) Yuqori kapitallashuv daromadi
 - d) A, B javoblar to'g'ri
- 14. Mikromoliya tashkilotlariga qanday tashkilotlar kiradi?**
- a) Mikro kredit
 - b) Mikroqarz
 - c) Mikrolizing va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar
 - d) Barcha javoblar to'g'ri
- 15. O'zbekiston Respublikasining "Kredit uyushmalari to'g'risida" gi qonun nechta moddadan iborat va uning nechanchi moddasida kredit uyushmalariga ta'rif berilgan?**
- a) 35; 7
 - b) 30; 10
 - c) 49; 15
 - d) 30; 3

9-mavzu: Kredit tizimi va uning barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar

9.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha asosiy manbalar

Talaba mavzu bo'yicha fan dasturiga asosan bank tizimi va uning barqarorligi; banklarni reyting darajasi; moliyaviy barqarorlik; ichki va tashqi barqarorlik; banklarni to'lov qobiliyati; banklar to'lov qobiliyati barqarorligi; bank to'lov qobiliyatini mikro va makro darajadagi ahamiyati; banklarni to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar; banklar faoliyati likvidligi va uni ta'minlash yo'llari; lahzali, joriy va qisqa muddatli likvidlik; banklar va nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim

Yuqoridagi tushunchalarni talaba bank tizimi va uning barqarorligi bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtiradi.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati:

1. Bank tizimi – bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shakli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikamiz bank tizimi tarkibiga Markaziy bank, tijorat banklari, nobank kredit tashkilotlari va boshqalar kiradi,

2. Bank tizimining ahamiyati – ma'lumki bank tizimi har qanday turdagi iqtisodiyotning markaziy tizimini tashkil qiluvchi institutlardan hisoblanadi, chunki bank tizimining muvaffaqiyatli ishidan iqtisodiyotni samarali faoliyat ko'rsatishi, umuman olganda mamlakat iqtisodiyoti ko'rsatkichlarini yaxshilanishining muhim sharti hisoblanadi.

Bu bo'yicha Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov – “aynan banklar ta'bir joiz bo'lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog'liq”-degan edi.

3. Bank tizimi barqarorligi – moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi manbalar bilan mavjud tovar-moddiy zahiralarni hajmining qoplanish darajasi tushuniladi. Ushbu jihatdan kelib chiqib subyekt moddiy aylanma mablag'lari, ularni tashkil qiluvchi manbalar bilan to'liq ta'minlangan taqdirda u moliyaviy barqaror hisoblanadi.

Keyingi yillarda ko'plab xalqaro reyting agentliklari (mudis, fitch reytingi va boshqalar) O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish istiqbollari “barqaror” deb baholadi. Bank barqarorligining muhim omili bo'lib uni foyda bilan faoliyat ko'rsatishi hisoblanadi.

4. Banklarni ichki barqarorligi – bu tijorat banki faoliyatini barqaror, yuqori natijalarni ta'minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining hamda moliyaviy natijalar dinamikasidir.

5. Tashqi barqarorlik – ushbu bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikni butun mamlakat miqyosidagi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan boshqarish tizimi orqali erishiladi.

6. Banklarning reyting darajasi. “Mudis”, “Standart end Purs” kabi nufuzli Xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarini yuqori reyting ko'rsatkichiga ega bo'layotganligi ularni kapitallashuv darajasini oshishi, xo'jalik yuritish subyektlari hamda aholi bo'sh mablag'larini depozitlarga jalb qilinishi va boshqa omillar asosida mo'tadil barqaror faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq.

7. Banklarni to'lov qobiliyati – bankning majburiyatlarini qoplash uchun yetarli bo'lgan yuqori likvid mablag'lar bilan ta'minlanganligidir. Banklarni to'lov qobiliyati bank aktivlarining sifati, shu jumladan ular tarkibida yuqori likvidli naqd pullarni mavjudligi bilan bog'liq.

8. Banklar to'lov qobiliyati ta'minlanganligining makro darajadagi ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

- pulga bo'lgan talabni to'liq qondirilishi;
- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirilishi;
- milliy valyutani barqarorligini mustahkamlanishi;
- inflyatsiyaning maqbul darajadali;
- milliy iqtisodiyotga yo'naltirilgan kreditlar hajmini o'zgarishi;
- mamlakatda iqtisodiy o'sishning barqaror darajasi ta'minlanganligi.

9. Bank to'lov qobiliyati ta'minlanganligining mikro darajadagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bank majburiyatlari to'liq bajariladi.
- bank mijozlari omonotchilari va investorlarining bankga nisbatan ishonchi ortadi.
- bank aksionerlarining iqtisodiy manfaatdorligi, ya'ni dividendlarning bar-qaror darajasini ta'minlashga erishiladi.
- bankning kapitallashuv darajasi oshadi.

10. Banklar to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar:

- oborot aktivlar tarkibini o'zgarishi;
- to'lov muddati o'tgan debitorlik qarzlari;
- majburiyatlar hajmini o'zgarishi;
- uzoq muddatli kredit va qarzlarni o'zgarishi;
- to'lov muddati o'zgartirilgan qarzlarning hajmi va boshqalar.

11. Bank likvidligi – bank aktivlarining naqd pul sifatida yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan holda pul mablag'lariga aylantirish yo'li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish qobiliyatiga aytiladi. Agar

bankning naqd pullari va likvid aktivlarining yig'indisi uning qarzini (moliyaviy majburiyatlarini) qoplash uchun yetarli bo'lsa bank faoliyati likvid hisoblanadi.

12. Bank likvidligini ta'minlash uchun:

- Tijorat bankining ma'lum vaqt mobaynidagi aktivlari tarkibini takomillashtirish ya'ni ular tarkibini iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va xatarni aniqlash, aktivlar sifatini, ular daromadlilik, likvidligi, diversifikatsiya qilinganligiga e'tibor qaratilishi lozim.

- Tijorat banklarining ma'lum vaqt mobaynida yuzaga kelgan noqulaylikka tushib ketmasligi uchun aktiv va passivlarning mos moddalarini qo'shimcha o'rganish, qarz mablag'larini jalb qilinishi va boshqalarni o'z vaqtida tahlil qilib borish lozim.

13. Bank likvidligi turlari – lahzali, joriy va qisqa muddatli. Bu ko'rsatkichlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

- lahzali likvidlik $= \frac{LA}{BM}$

Bunda,

LA – bankning pul shaklidagi aktivlari

BM – bankning muddatsiz deposit hisobvaraqlariga doir majburiyatlari.

- joriy likvidlik $= \frac{LA(1)}{BM(1)}$

Bunda,

$LA(1)$ – qaytarish muddati 30 kungacha muddatga berilgan bankning likvid aktivlari va kreditlar.

$BM(1)$ – qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan yo'qlab olinguncha bo'lgan majburiyatlari.

- qisqa muddatli $= \frac{A}{D + K}$

Bunda,

A – 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlari.

D – muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan jalb qilingan depozitlar va jalb qilingan resurslar.

K – bank kapitali.

14. Banklar va nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar:

- banklar kapitallashuvini yanada oshirish;
- banklar aktivlarini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish;
- uzoq muddatli depozitlarga aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar pul mablag'larini jalb qilishni rag'batlantirish;
- iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish;
- banklarning investitsiya jarayonidagi ishtirokini yanada kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashni faollashtirish;
- bank faoliyati nazoratini takomillashtirish;
- bank xizmatlari sifatini yaxshilash;
- nobank kredit tashkilotlari resurs bazasini muttasil oshirib borish va boshqalar.

9.2. Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.

1-topshiriq.

Bankning 2014-yil balansi bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud, ming so'm:

T/r	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga
1	2	3	4
1	Aylanma kassadagi naqd pullar	513,2	613,1
2	Pul almashtirish shahobchalaridagi naqd pullar	6,0	9,0
3	Cheklar va boshqa to'lov hujjatlari	17,5	12,7
4	Boshqa banklardagi hisobvaraqlar-depozitlar	714,3	681,3
5	Bankomatlardagi naqd pullar va boshqa tez pulga aylantirish mumkin bo'lgan qiymatlar	819,9	889,4
	Pul va pulga tenglashtiriladigan mablag'larning jami		
1	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar	318,8	302,3
2	Olingan qisqa muddatli ssudalar	181,4	204,4
3	Mijozlarning boshqa depozitlari	497,1	497,1
4	Hisoblangan soliqlar	173,9	130,0
5	Jismoniy shaxslarning plastic kartochkalari bo'yicha majburiyatlari	896,6	920,6
6	Bankning boshqa majburiyatlari	338,5	16,9
	Majburiyatlarning jami		

Talab qilinadi:

1. Keltirilgan ma'lumotlarni jamlash.
2. Bankning yil boshi va yil oxiriga bo'lgan to'lov qobiliyatini aniqlash.
3. Bank to'lov qobiliyatini yil davomidagi o'zgarishiga xulosa yozish.

2-topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi testlarni yeching.

1. Dastlabki kredit tizimi qaysi mamlakatda shakllangan?

- A) Italiya
- B) Angliya
- C) AQSh
- D) Rossiya

2. “Bugungi kunda banklar kapitalining yetarlilik darajasi xalqaro standartlardan 3 barobardan oshdi” – deyilishi Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qachon aytilgan

- A) Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 18-yanvardagi yig'ilishida
- B) 1998-yil 2-oktyabrdagi aksioner banklar faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi farmonda
- C) 2010-yil 6-apreldagi PK-1317 sonli qarorda
- D) 1997-yil 24-apreldagi xususiy banklarni tashkil etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonda

3. Bank moliyaviy barqarorligining turlari.

- A) moliyaviy va investitsiyaviy
- B) yuqori va past darajadagi
- C) ichki va tashqi
- D) barqaror va mustahkam

4. Banklar to'lov qobiliyatining turlari

- A) mikro va barqaror darajada
- B) barqaror va makro darajada
- C) to'lovga qodirlik va foydali faoliyat
- D) makro va mikro darajada

5. Tijorat banklarining moliyaviy holatiga baho berishda e'tibor qaratiladi...

- A) foydalilik, likvidlik va barqarorlik
- B) foydalilik, likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik

- C) bank kapitalini yetarliligi, likvidlik va foydalilik
- D) mikro va makro darajadagi hamda yetarli darajadagi to'lovga qodirlik

6. Likvidlik koeffitsiyentining turlari.

- A) mikro, o'rta va yuqori darajadagi likvidlik
- B) joriy, qisqa muddatli va o'rta darajadagi likvidlik
- C) lahzali, joriy, qisqa muddatli likvidlik
- D) ma'lum muddatga, joriy va uzoq muddatli likvidlik

7. Banklarning likvidlik ko'rsatkichlarini aniqlash Markaziy bank tomonidan qaysi sanada qabul qilingan qoidalar asosida olib boriladi?

- A) 1997-yil 22-avgust
- B) 2008-yil 26-yanvar
- C) 1998-yil 24-yanvar
- D) 2004-yil 17-sentyabr

8. $M_1 = \frac{LA}{BM}$ formulasi orqali banklarni qaysi turdagi likvidlik darajasi aniqlanadi?

- A) joriy
- B) qisqa muddatli
- C) uzoq muddatli
- D) lahzali

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlarga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori nechanchi raqam bilan qayd etilgan?

- A) 376
- B) 1438
- C) 1317
- D) 10

10. Respublikamiz Prezidentining qaysi sanadagi nutqida "bank tizimining likvidligi 65 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir"-deyilgan?

- A) 1997-yil 24-yanvar
- B) 2002-yil 30-mart
- C) 2013-yil 13-yanvar
- D) 2010-yil 24-dekabr

10-mavzu: Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari

10.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha manbalar

Talaba mavzu bo'yicha fan dasturiga asosan valyuta tizimi; valyuta munosabatlari; valyuta mexanizmi; valyuta siyosati(valyuta intervensiyasi; svop operatsiyalari; devolvatsiya; revolvatsiya va valyutani cheklash siyosati); milliy; mintaqaviy va jahon valyuta tizimi; O'zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlari; valyuta kursi, uning turlari; konvertirlangan valyuta; valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar; O'zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlari bo'yicha me'yoriy hujjatlari, valyuta boyliklari; valyuta operatsiyalari tarkibi; Markaziy bankni valyutani tartibga solish bo'yicha vakolatlari; joriy xalqaro operatsiyalar; valyutani nazorat qiluvchi organlar bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Talaba yuqoridagi tushunchalarni xalqaro valyuta munosabatlari bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlari asosida o'zlashtirishi lozim.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni mohiyati

1. Valyuta va valyuta tizimi.

Milliy doirada amal qiluvchi, qadr-qiymati shu mamlakat boyligi bilan ta'minlangan pul – valyuta deyiladi. Valyuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valyuta munosabatlarini tashkil qilish va boshqarish shakllarini o'z ichiga oladi.

2. Valyuta mexanizmi va valyuta munosabatlari.

Valyuta mexanizmi deganda valyuta bilan bog'liq milliy va xalqaro darajadagi huquqiy me'yorlar va muassasalar tushuniladi. Valyuta bir biriga ayirboshlanganda valyuta munosabatlari paydo bo'ladi. Bunday munosabatlar jismoniy shaxslar, firmalar, banklarning valyuta va pul bozoridagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda sodir bo'ladi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, jaxon bozorining barpo bo'lishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va jaxon xo'jalik tizimining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishining asosidir. Valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir bo'lagi hisoblanib, uning holati milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga, siyosiy holatga, mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, uning jahondagi mavqeyiga va boshqa omillarga bog'liq.

3. Valyuta siyosati va uning asosiy elementlari.

Valyuta siyosatini mamlakatlarning markaziy banklari olib boradi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Valyuta intervensiyasi

- Spot operatsiyalari
- Devalvatsiya
- Revalvasiya
- valyutaviy cheklash siyosati va boshqalar

4. Valyuta tizimining turlari.

- milliy;
- jahon;
- mintaqaviy.

Milliy valyuta tizimi alohida olingan davlatning valyuta munosabatlarini qonun asosida tashkil qilish va boshqarish munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Jahon valyuta tizimi xalqaro to'lov vositalarining ma'lum qismi sifatida valyuta kurslari, valyuta va oltin bozorlari rejimi, xalqaro va milliy bank tashkilotlari, xalqaro kredit vositalarini muomalada qo'llash qoidalari, valyutaviy cheklashlarni davlatlararo boshqarish usullari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mintaqaviy valyuta tizimi rivojlangan mamlakatlarning jahon valyuta tizimi chegarasida tashkil etiladi. Uning asosi bo'lib xalqaro mehnat taqsimoti va tashqi savdo hisoblanadi. mintaqaviy valyuta tizimi jumlasiga Yevropa valyuta tizimi va boshqalarni kiritish mumkin.

5. Yevropa ittifoqi.

Hozirgi Yevropa ittifoqi tarixiy shakllanishiga ko'ra dastlab 1948 yilda "Marshal rejasi"ni amalga oshirish uchun AQSh tomonidan qo'llab quvvatlangan Yevropa Ittifoqi hamkorlik tashkiloti (YeIHT)xolida, 1957 yilda Yevropa Ittifoqi hamjamiyati (YeIH)xolida va 1992 yildan Yevropa Ittifoqi (YeI) xolida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi unga a'zo mamlakatlar doirasida siyosiy, integratsiyaviy, iqtisodiy va valyutaviy hamkorlikka erishish hisoblanadi.

6. Yevropa valyuta tizimi.

Yevropa Ittifoqi doirasidagi iqtisodiy va valyutaviy ittifoq tuzish bo'yicha o'rinishlar 1979 yilni 13 martidan Yevropa valyuta tizimi (YeVT) tashkil topdi. Shu davrdagi YeVT o'z ichiga yevropa mamlakatlari valyutalarini to'liq qamrab olmagan, YeVT da valyutaviy tebranishlar diapozoni qisqargan bo'lsada valyuta kurslarini davriy tuzatishlar yuz berib turar edi. Shuning uchun ham Yevropa Ittifoqi doirasida o'z valyutasiga ega bo'lish ishlari davom ettirildi va 1999 yilni 1 yanvaridan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yagona valyutasi yevro naqd pulsiz hisob-kitoblarda muomalaga kiritildi va u Yevropa valyuta tizimi tarkibida muhim o'rinni egalladi. Naqd pullik hisob-kitoblarda evro 2002-yil 1-iyulidan muomalaga kiritilgan.

7. Valyuta katirovkasi va uning turlari. Valyuta katirovkasi deganda almashtirish uchun taqdim etilgan valyutalar kursini va ular orasidagi nisbatni o'rnatish tushiniladi.

Valyuta katirovkasi rasmiy va bozor katirovkasiga bo'linadi. Rasmiy katirovkasini mamlakatlarning markaziy banki belgilaydi.

Bozor katirovkasi talab va taklif asosida nobirjaviy valyuta bozorlarida amalga oshiriladi.

8. Milliy, rezerv va almashtiriladigan valyuta.

Milliy valyuta bir mamlakat doirsida amal qiladigan valyuta. Xozirgi vaqtda xalqaro xisob-kitoblarda o'z milliy valyutasi bilan birgalikda AKSh dollari va boshqa nufuzli valyutalarning foydalanishi ularni rezerv to'lov vositasi sifatida saqlanish bilan bogliq.

Erkin almashtiriladigan valyuta xar qanday chet el valyutasiga cheklanmagan miqdorda almashtiriladigan valyuta.

9. O'zbekiston Respublikasining valyuta munosabatlari.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonun (Toshkent, 2003 yil), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 27-noyabrda "Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish choralari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 15-avgustdagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-sonli qarori va boshqalar bilan tartibga solinadi.

10. O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga soluvchi davlat organi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga soluvchi davlat organi hisoblanadi. Qonunda shu kabi Markaziy bank valyutani tartibga solish masalalari bo'yicha barcha yuridik va jismoniy shaxslar bajarishi majburiy bo'lgan normative hujjatlar qabul qiladi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirishi ta'kidlangan.

11. Valyuta kursi - Bir mamlakatning valyutasi ikkinchi mamlakatning valyutasiga ayirboshlash shu muddatga bo'lgan ularning kurslari asosida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, pulni pulga ayirboshlanishi valyuta kursi deyiladi. Jumladan, 2014-yil 21-oktyabriga AQSh dollarining so'mga nisbati 2379 so'm 75 tiyinni, Evroga nisbati 3016 so'm 81 tiyinni tashkil etadi.

12. Milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilash.

Bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan chet el valyutasiga bo'lgan talab hamda taklifning joriy nisbati asosida shakllanadigan almashuv kursi bo'yicha amalga oshiriladi"-deyilgan.

13. Valyuta kursining turlari:

1. Tijorat banklari uchun Markaziy bank belgilagan rasmiy kurs.

2. Banklarni valyutalarni sotish va sotib olish kurslari.
3. Valyutani birja kursi.
4. To'lov qobiliyati pariteti, inflyatsiya va boshqa baho indeksleri asosida hisoblangan real kurslar.
5. Valyuta operatsiyalari turlari bo'yicha belgilangan spot, forward va boshqa kurslar.
6. Valyutalar savdosi asosida hisoblangan kros-kurslar.
7. Yuqoridagi valyutalar kurslari asosida o'rtacha oylik, choraklik va yillik kurslar.
8. Norasmiy valyuta bozorlari kursi.

14. Xalqaro miqyosda pulning qadr-qiyamatiga ko'ra valyutalar bo'linadi:

1. Konvertirlangan valyuta – boshqa mamlakatlar valyutasiga erkin almashtiriladigan valyuta.
2. Konvertirlanmagan valuta – bu ichki konvertirlangan pul bo'lib, u asosan mamlakatlarning o'z faoliyati hisob-kitoblarida foydalaniladi.

15. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar:

1. To'lov balansining holati. Respublikamiz to'lov balansi keyingi yillarda ijobiy saldogaga ega va uni yanada oshib borishi kuzatilmoqda. Agar 2000-yilda to'lov balansini saldosi 317,1 mln dollar, 2012-yilda 1120 mln dollar bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013-yilda 1300 mln dollarni tashkil etdi.
2. Inflyatsiya darajasi. Respublikamizda bu ko'rsatkich mo'tadil darajada bo'lishligiga erishilmoqda. Jumladan, Respublikamizda bu ko'rsatkich 2005-yilda 7,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda 7,0 va 2013-yilda 6,8 foizni tashkil etgan.

3. Mamlakatlar o'rtasidagi migratsiya darajasi.

4. Siyosiy va harbiy holat va boshqalar.

16. O'zbekiston Respublikasining valyuta boyliklari.

Qonunning 3-moddasiga binoan chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

17. Valyuta operatsiyalari.

Qonunning 6-moddasiga binoan valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- valyuta boyliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'ziga shaxsga o'tishi hamda valyuta boyliklarini to'lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog'liq operatsiyalar;
- valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasida olib kirish va jo'natish, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo'natish;
- xalqaro pul jo'natmalarini amalga oshirish;
- rezidentlar va norezidentlar o'rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar;

- valyuta operatsiyalari joriy xalqaro operatsiyalarga hamda kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalariga bo'linadi;
- O'zbekiston Respublikasi hududida sof quyma oltin muomalasi tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyutani tartibga solish bo'yicha vakolatlari:

- O'zbekiston Respublikasida chet el valyutasining hamda chet el valyutasi-dagi to'lov hujjatlarini muomalasi tartibini belgilaydi;
- Milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash mexanizmini belgilaydi;
- O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida barcha turdagi valyuta operatsiyalarini amalga oshiradi;
- Chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklarga litsenziyalar berishni umumiy qoidalarini belgilaydi, bunday litsenziyalarni beradi va chaqirib oladi, shuningdek banklar faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib turadi;
- Joriy xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan odatdagi qisqa muddatli bank va kredit mexanizmlari muddatining chegarasini belgilaydi;
- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni bajaradi.

19. Joriy xalqaro operatsiyalar.

Qonun hujjatlariga binoan ushbu operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- Tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan, shuningdek odatdagi qisqa muddatli bank va kredit mexanizmlari ishlashi munosabati bilan to'lanishi zarur bo'lgan to'lovlar;
- Kreditni, qarzlarini uzish uchun yoki to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarni to'lash;
- Ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar, alimentlar to'lash;
- Xodimlarni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash;
- Ta'lim va davolanish uchun haq to'lash;
- Xalqaro kongresslar, simpoziumlar, konferensiyalarda, sport va madaniy tadbirlarda, shuningdek boshqa xalqaro uchrashuvlar, ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etganlik uchun to'lovlar, investitsiya bilan bog'liq va moddiy xarajatlar bundan mustasno;
- Mualliflik haqini to'lash, patent bo'jlarini to'lash va intellektual mulk sohasidagi litsenziya shartnomalarining majburiyatlari bo'yicha haq to'lash;
- Xalqari notijorat tashkilotlariga badallar.

Yuqoridagi va boshqa xalqaro operatsiyalar va chet el valyutasini ular bilan bog'liq holda sotib olish yoki sotish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

20. O'zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlar jumlasiga Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi kiradi.

O'zbekiston Respublikasida rezidentlar va norezidentlar tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining qonun hujjatlariga muvofiq-ligini valyutani nazorat qiluvchi organlar o'z vakolatlari doirasida belgilangan tartibda nazorat qiladilar.

10.2. Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.

1-topshiriq

Quyidagi ma'lumotlar asosida valyutalarni so'mga nisbatan kursidagi o'zgarishlarni aniqlang va ularga xulosa yozing.

T/r	Valyutalarning nomi	2014-yilni 7-yanvariga	2014-yil 8-iyuliga	2015-yil 6-yanvar	2015 yil 6- yanvar-ning far- qi, % da	
					2014 yil 7-yanvar kursiga	2014 8-iyul kursiga
1	Angliya funt-sterlingi	3604,91	3977,45	3705,68		
2	AQSh dollari	2203,22	2320,16	2424,23		
3	Xitoy yuani	364,05	374,28	389,74		
4	Rossiya rubli	67,46	67,60	43,11		
5	Turkiya lirasi	1013,19	1088,41	1034,23		
6	Evro	3034,20	3166,61	2960,23		
7	SDR	3383,24	3588,08	3512,25		
8	10 Janubiy Koreya voni	20,74	22,97	21,86		
9	10 Yapon iyenasi	211,08	227,15	201,18		

2-topshiriq

Valyutalarni so'mga nisbatan kursi bo'yicha ma'lumotlar asosida 1 Xi-toy yuani va 1 Rossiya rublini so'mga nisbatan kross-kursini aniqlang.

A. 2015-yilni 6-yanvariga 1 AQSh dollari = 2424 so'm, 23 tiyin, 1 AQSh dollari = 1 Xitoy yuaniga =

B. 2015-yilning 6-yanvariga 1 AQSh dollari = 2424 so'm, 23 tiyin, 1 AQSH dollari = 1 Rossiya rubliga =

3-topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi test savollarini yeching.

1. Valyuta siyosatining asosiy elementlari.

- A) Valyuta intervensiyasi, svop operatsiyalari, devolvatsiya, valyuta kotirovkasi.
- B) Valyuta intervensiyasi, svop operatsiyalari, devolvatsiya, revolvatsiya, valyutaviy cheklash.
- C) Svop operatsiyalari, valyuta intervensiyasi, devolvatsiya, rasmiy kotirovka.
- D) Devolvatsiya, bozor kotirovkasi, devolvatsiya, revolvatsiya, valyutaviy cheklash.

2. Valyuta kotirovkasining turlari.

- A) To'g'ri va egri
- B) Milliy va rezerv
- C) Rasmiy va bozor
- D) Libor va rasmiy

3. Valyuta tizimining turlari.

- A) Milliy, mintaqaviy, xalqaro
- B) Milliy, mintaqaviy, jahon
- C) Jahon, bir mamlakat ichida, davlatlararo
- D) Yevropa valyuta tizimi, milliy, mintaqaviy

4. Valyuta kross-kursini aniqlanishi.

- A) Bir necha mamlakat valyuta kurslari yordamida ma'lum bir mamlakat valyutasi kursini aniqlash.
- B) Nufuzli valyuta asosida boshqa bir mamlakat valyutasi kursini aniqlash.
- C) Rivojlangan mamlakatlar valyutalari kursi asosida kerakli mamlakat valyutasi kursini aniqlash.
- D) Ikki mamlakat valyutasi kurslari asosida uchinchi mamlakat valyutasi kursini aniqlash.

5. Evro qachondan naqd pulsiz va naqd pullik muomalaga kiritilgan.

- A) 1999-yil 1-yanvar, 2001-yil 1-iyun
- B) 1999-yil 1-yanvar, 2002-yil 1-iyul
- C) 1979-yil 13-mart, 2000-yil 1-yanvar
- D) 1998-yil 31-dekabr, 2002-yil 1-yanvar

6. O'zbekiston Respublikasida valyuta tartibga soluvchi davlat organi

- A) Moliya vazirligi
- B) Vazirlar Mahkamasi
- C) Markaziy bank
- D) Bojxona qo'mitasi

7. Milliy valyutani chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilash tartibi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunning qaysi moddasida berilgan?

- A) 10
- B) 3
- C) 6
- D) 15

8. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi valyutaga tegishli qaysi tushunchaga bag'ishlangan?

- A) valyuta boyliklari
- B) valyuta operatsiyalari
- C) joriy xalqaro operatsiyalar
- D) vakolatli banklar

9. To'lov balansining holati qaysi tushunchaga ta'sir etuvchi omillaridan hisoblanadi?

- A) Inflyatsiya
- B) Valyuta kursi
- C) Valyuta barqarorligi
- D) Valyuta siyosati

10. Yevropa valyuta tizimi dastlab qachon tashkil etilgan?

- A) 1948-yil
- B) 1957-yil
- C) 1979-yil
- D) 1992-yil

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining sanasi

- A) 2008-yil 27-noyabr
- B) 1992-yil 23-noyabr
- C) 2003-yil 15-avgust

D) 2006-yil 6-may

12. Joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha valyuta konvertatsiyasiga Respublikamizda qachondan erishilgan?

A) 2003-yil 15-oktyabr

B) 2003-yil 11-dekabr

C) 1996-yil 25-aprel

D) 2002-yil 30-mart

13. Jahon amaliyotida valyuta munosabatlarining ba'zi elementlari dastlab qaysi mamlakatda vujudga kelgan?

A) Fransiya

B) Italiya

C) Angliya

D) Rossiya

14. O'zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlar

A) Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi, Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi

B) Markaziy bank, Soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi

C) Markaziy bank, Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi

D) Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi

11-Mavzu: Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning turlari

11.1 Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ularni o'zlashtirish bo'yicha asosiy manbalar

Talaba mavzu bo'yicha fan dasturiga asosan xalqaro moliya institutlari; Xalqaro valyuta jamg'armasi; Xalqaro valyuta jamg'armasining rahbar organlari; XVJning kreditlari; Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki; XTTB bilan O'zbekistonning kredit munosabatlari; Xalqaro moliya korporatsiyasi; XMK va xalqaro lizing; Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki; YeTTB bilan O'zbekistonning kredit munosabatlari; Osiyo taraqqiyot banki; OTB kreditlarining turlari; OTBning O'zbekiston bilan kredit munosabatlari; Islom taraqqiyot banki va uning faoliyati xususiyatlari bo'yicha tegishli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tushunchalarni talaba xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan munosabatlar bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv yo'lanma, ma'ruzalar kursi hamda ushbu uslubiy qo'llanma ma'lumotlar asosida o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarning mohiyati:

1. Respublikamizda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni maqsadi va xalqaro moliya tashkilotlarning asosiy turlari.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr darajasiga ko'tarish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga kirib borish xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni va ularning resurslaridan, tajribasidan foydalanishni taqozo etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston keng miqiyosdagi o'z rivojlanish strategiyasiga ega bo'lib, islohotlarni bundan keyin ham izchil davom ettirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi yashash tarzining farovonligini oshirishga xizmat qiladigan ijtimoiy investitsiyalarni ko'paytirish yo'lidan dadil va qat'iyat bilan boraveradi. Buning uchun ochiq demoratik jamiyat qurish yo'liga o'tishgina yetarli bo'lmaydi. Bunda mamlakatimizni xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan aloqalarini takomillashtirish, o'zaro manfaatli hamkorlik imkoniyatlarini topish va amalga oshirish lozim.

Aynan shunday hamkorlik maqsadidan kelib chiqib 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi, 1945 yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, 1956 yilda Xalqaro Moliya korporatsiyasi, 1990 yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, 1966 yilda Osiyo taraqqiyot banki, 1974 yilda Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tashkil topgan.

2. Xalqaro valyuta jamg'armasi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsuslashtirilgan muassasasi statusiga ega bo'lgan valyuta-kredit tashkiloti bo'lib, valyuta kurslarini tartibga solish va ularga rioya qilinishini nazorat etish me'yorlarini belgilash, shuningdek to'lov balanslarining bekorligi munosabati bilan valyuta qiyinchiliklari vujudga kelganda o'z a'zolariga valyuta resurslaridan berish yo'li bilan xalqaro savdo va savdo hamkorligini rivojlantirishga yordam beradi.

XVJ- AQSHning Brutton Vuds xalqaro valyuta- moliya konferensiyasi-da 1944 yilda tuzilgan bo'lib, 1947 yildan faoliyat ko'rsata boshlagan. XVJ kapitali uning mijozlari kvotasiga mos to'lanadigan badallar hisobiga shakllanadi. Kvota lotincha QUOTA –qism, hissani bildirib u davlatlararo shartnomalarga ko'ra ayrim yoki bir guruh tovarlar yuzasidan kvota o'rnatiladiki, unga muvofiq mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhi faqat belgilangan miqdordagi tovarlarni ishlab chiqarishi va chetga sotishi mumkin. Kvotalar o'rnatishdan maqsad bozordagi narxni ma'lum maqsad yo'lida o'zgartirib turish, chunki kvota tovar taklifini chegaralaydi, bu bilan narxga, binobarin foyda ko'rishga ta'sir etadi. O'zbekiston XVJga 1992 yilni sentyabr oyidan beri a'zodir.

3. Xalqaro valyuta jamg'armasining rahbar organlari. Xalqaro valyuta jamg'armasining quyidagi rahbar organlari mavjud:

- a) Xalqaro valyuta jamg'armasining departamenti- Afrika, Yevropa, Osiyo, O'rta Sharq va G'arb bo'yicha tuzilgan bo'lib shu mintaqalar bo'yicha boshqaruvni amalga oshiradi;
- b) XVJning boshqaruv organi bo'lib –boshqaruv kengashi hosoblanadi va u har yili bir marotaba qatnashuvchi mamlakat vakillari bilan birga to'planadi.
- c) XVJning ijro etuvchi organi bo'lib Direktorat hisoblanadi va u 6 a'zodan, ya'ni ko'proq kvotaga ega bo'lgan mamlakat a'zolaridan tashkil topgan. Shuningdek unga geografik belgi asosida tanlab olingan olti a'zo ham hisobga olingan.
- d) XVJning majlis o'tkazuvchi organi bo'lib boshqaruv qo'mitasi, sho'ba qo'mitasi hisoblanadi va uning tarkibiga 22 ta mamlakat moliya vazirlari kiradi.

XVJni 2011-yilni 5-iyulidan ilk bor ayol rahbar Fransiyalik K. Ligard boshqarmoqda.

4. Xalqaro valyuta jamg'armasining kreditlari. Ushbu kreditlar quyidagilarga bo'linadi:

- a) XVJning zahira pozitsiyasi chegarsida turuvchi mamlakatlarga beriladigan kredit. Kreditning bu turi mamlakat to'lov balansi difisitini qoplashga mo'ljallangan. Bu qarz milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish yo'li bilan 3-5 yil muddatga beriladi.

- b) Yuqori zahira ulushiga beriladigan kredit. Bunday ssudalar mamlakat valyuta-sining iqtisodiy holatini o'rganib chiqilib XVJning barqarorlashtirish chora-tadbirlari talabini bajargandan so'ng beriladi.

XVJning barqarorlashtirish dasturi ichki kreditlarni chegaralash, byudjet xarajatlarini kamaytirish kabi masalalarni hal qiladi. XVJ oldiga a'zo mamla-katlar valyuta paritetlarini boshqarish va qo'llab-quvvatlash, valyuta kurslarini boshqarish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston 1996-1997 yillarda makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi bo'yicha XVJdan 259 mln. AQSH dollari miqdorida madad olgan va u mam-lakatimiz valyutasini qo'llab-quvvatlashga sarflangan.

- 5. Jahon banki va uning tarkibi.** Jahon banki dunyo miqyosida yirik valyuta-kredit tashkiloti hisoblanadi. Jahon bankiga kiruvchi ayrim moliyaviy muassa-salar 1945 yildan faoliyat ko'rsata boshlagan. Jahon bankini keyingi yillarda uning Prezidenti sifatida Jeyms Vulfenson, Pol Fulfoves va Lu Brefor bosh-qargan. Shundan keyin Lu Brefor jahon bankining Toshkentdagi vakolatxona-sini boshqargan.

Jahon banki 43 dan ortiq moliyaviy muassasalarni o'zida birlashtirgan bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar:

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)
- Xalqaro taraqqiyo uyushmasi (XTU)
- Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)
- Investitsiyalarni kafolatlashning ko'p tarmoqli agentligi (IKKTA)
- Investitsion munozaralarni boshqarishning xalqaro markazi (IMBXM)

- 6. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki.** XTTB BMTning maxsus muassasasi davlatlararo instituti hisoblanadi. XTTB Brutton Vuds xalqaro valyuta-moliya konferensiyasi qaroriga binoan va XVJ ta'sisligida 1945 yilda Vashingtonda tashkil etilgan. XTTBning asosiy maqsadi a'zo davlatlar iqtisodiyotiga uzoq muddatli kreditlar va qarzlar berish, xususiy investitsiyalarni kafolatlashdan iborat.

Bankning xizmat doirasi dunyo bo'yicha a'zo taraqqiy etayotgan mam-lakatlari. Ko'rsatiladigan yordam zayom va taraqqiy etayotgan mamlakatlarga kafolatlangan kreditlar shaklida. Zayomlar odatda 15-20 yilga besh yillik im-tiyozli davr bilan beriladi.

Hozirgi vaqtda XTTB Osiyo taraqqiyot banki loyihalari doirasida O'zbekistonga qishloq xo'jalik texnikalari xaridi uchun uzoq muddatli kredit-lar ajratmoqda. XTTB loyihasida Respublikamizning Marhamat, Ellikqala, Ni-shon, Sherobod hamda Ohangaron, OTB loyihasida Zomin, Kattaqo'rg'on, Quyichirchiq, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Angor, Muzrabod va Termiz tuman-lari ishtirok etmoqda.

Mazkur loyihalar doirasida yuqoridagi tumanlarda jami 319 ta qishloq xo'jalik korxonalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga 2006 yil 31 dekabr holatiga 15.5 mln. AQSH dollarida uzoq muddatli kreditlar ajratildi.

- 7. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU).** XTU 1960 yilda rivojlanayotgan davlatlarga imtiyozli kreditlar (yillik 0.75 foiz stavkasida) berish maqsadida tashkil etilgan. Uning kreditlari asosan aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot eng kam to'g'ri kelayotgan mamlakatlarga beriladi. XTU faqat hukumatlarga qarz beradi. Qarzni uzish muddati 30 yildan 40 yilgacha. Bunday qarzlarning bo'yicha foizlar olinmaydi, lekin kreditga xizmat qilish qarzning joylashtirilgan qismining 0.5 foizi miqdorida har yili yig'im olinadi. XTU amalga oshirayotgan loyihalar XTTB qo'llab-quvvatlayotgan loyihalar mezonlariga javob berishi kerak.

XTTB va XTUlar faoliyatining asosiy maqsadi - dunyodagi kambag'allik ko'lamini qisqartirgan holda insonlarning hayot shart sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. 2014 yilni birinchi yarmida XTTB va XTU tomonidan Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlariga 47 loyihaga 5.6 mlrd AQSH dollari miqdorida kredit mablag'larni ajratdi.

Umuman, bugungi kunga qadar Hamkorbank tomonidan XTUning 44 mln AQSH dollari miqdordagi kredit liniyasi mablag'lari, shundan "Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash faza-II" loyihasini amalga oshirish bo'yicha 3 mln AQSH dollar miqdorida, 5 yil imtiyozli davrni ham hisobga olgan holda 20 yil muddatga quyidagilarga yo'naltirilgan:

- Qishloq xo'jalik korxonalarida loyihalarni moliyalashtirish;
 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar xodimlarini o'qitish va ularga axborot-maslahat xizmatlarni ko'rsatish;
 - Irrigatsion-drenaj tarmoqlarini qayta qurish ishlarini amalga oshirish;
- XTTB va XTU tomonidan 2013 yilda ajratilgan jami kreditlarning 8 foizi qishloq xo'jaligi, baliqchilik va o'rmon xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlarning 49 foizi qoramolchilikni rivojlantirishga, 20 foizi parrandachilikni rivojlantirishga, 14 foizi mahsulotlarni saqlash, 12 foizi mahsulotlarni qayta ishlash va 5 foizi texnika xarid qilishga yo'naltirilgan.

- 8. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK).** XMK 1956 yilda taraqqiy etayotgan mamlakatlarda xususiy sektorni barqaror rivojlanishini rag'batlantirish, ularda kambag'allik miqyosini qisqartirish va shu mamlakatlarda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida tashkil etilgan va u Vashingtonda joylashgan.

XMKni harakat miqyosi jahonning XMKga a'zo bo'lgan taraqqiy etayotgan mamlakatlari bo'lib, uning yordami shu mamlakatlarning xususiy sektoriga kreditlar va investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Investitsiyalar faqat tijorat loyihalari bo'yicha amalga oshiriladi. Yangi loyihalar bo'yicha moliyalash loyihasining 25 foizigacha, ayrim hollarda 35

foizgacha, avval amalga oshirilgan loyihalarning kengaytirish bo'yicha uning 50 foizigacha miqdorda amalga oshiriladi.

1995 yilda O'zbekistonda tashkil etilgan dastlabki "O'zbeklizing Interneyshnl AJ" ning ta'sischilaridan biri bo'lib XMK hisoblanadi. O'zbekistonda birinchi xalqaro lizing operatsiyasi 1993 yilda tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan O'zbekiston havo yo'llariga chet el kompaniyalaridan lizing orqali samalyotlar xarid qilingan. Umuman XMK xalqaro lizing operatsiyalarida yetakchi o'rinni egallaydi.

9. Investitsiyalarni kafolatlashning ko'p tarmoqli agentligi (IKK-TA).

IKKTA- jahon banki tarkibida 1988 yilda tuzilgan eng yangi tuzilmadir. IKKTAning asosiy vazifasi notijorat tavakkalchilikdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlarda investorlarga beriladigan kafolat hisobiga, shuningdek sarmoya oqimini yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi qulay investitsiya muhitini va axborot bazasini yaratishda ko'maklashuvchi a'zo mamlakatlarga maslahat xizmatni ko'rsatish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida investitsiyalar oqimiga yordam berishdir. IKKTAni 1990 yillar boshiga 128 a'zosi bo'lgan.

10. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB).

YeTTB 1990 yilning mayida Fransiya Prezidenti F.Mitteranning tashabbusi bilan dastlab Parijda tashkil topdi. Prezident yevroparlamentining 1989 yil 25 oktyabrdagi yig'lishida- "Men boshqalarni ham rizoligiga ishonib shuni aytamanki, Yevropa uchun, balki butun jahon uchun ham ikkinchi jahon urushidan keyin Sharqiy Yevropada nimalar bo'layotganini, Yevropada nimalarga erishish mumkin?, bundan ko'proqqa? Buning uchun nega Yevropa bankini tuzish mumkin emas"- degan edi. Bank 1991 yilni 15 aprelidan boshlab dastlabki bank operatsiyalarini boshlagn.

Bankning asosiy maqsadi sobiq sotsialistik mamlakatlarga rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishga xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tarkibiy va tarmoq islohatlarini amalga oshirish, ularni jahon hamjamiyati integratsiyasiga ko'maklashish. Bankning harakat miqyosi Markaziy Yevropadan Markaziy Osiyogacha bo'lgan o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar. Bankning yordami o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarga zayom, kafolat va texnik yordam sifatida. Shu kabi yuqoridagi mamlakatlarning xususiy sektoriga kredit, mikrokredit va investitsiyalar orqali yordam ko'rsatish. Bank yangidan boshlanayotgan loyihalar qiymatining 35 foizigacha, harakatda bo'lgan kompaniyalarga uzoq muddatli capital qo'yma hajmining 35 foizigacha moliyalashtiriladi. O'zbekiston EBBRga 1992 yilning 30 aprelidan a'zo. 1994 yilda Toshkentda bankning vakolatxonasi ochilgan.

11. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O'zbekistonning kredit munosabatlari. Bank bilan O'zbekistonning birinchi 60 mln. AQSH dolla-

ri hajmidagi krediti respublikamiz Prezidentining 1993 yilda Buyuk Britaniyaga qilgan rasmiy safari vaqtida YeTTB shtab-kvartirasida bo'lishida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha imzolangan. Bank bilan O'zbekiston imzolagan ikkinchi kredit liniya 1996 yilda ochiq iqtisodiyotni rivojlantirishga 120 mln AQSH dollari hajmida bo'lib, uni 60 mln AQSH dollari, O'zbekiston milliy banki, 30 mln AQSH dollari Asaka bank, 15 mln AQSH dollari Sanoat qurilish banki va yana 15 mln AQSH dollari Paxta bank orqali foydalanilgan. Bank bilan uchinchi kredit liniya keying yillarda respublikamiz tijorat banklari orqali 100 mln. AQSH dollari hajmida foydalanilgan. Bank boshqaruvchilarning 2003 yil 3 – 5 may kunlari Toshkentda utkazilgan un ikkinchi yillik yig'ilishi davomida Andijon isitish tizimini qayta qurish, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish hamda savdo operatsiyalarini rivojlantirish uchun 20 mln. AQSH dollaridan ortiq hajmdagi kredit liniyasi kelishildi. Hozirgi vaqtda YeTTB orqali mikro kreditlar olish Agrobank, Ipoteka bank, Ipak yo'li va Hamkorbank orqali yo'lga qo'yilgan bo'lib bank bo'linmalari mijozning biznesini baholab kredit ajratmoqda.

12. Osiyo taraqqiyot banki (OTB). Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 1966 yilda Osiyo va Tinch okean mintaqasi mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish maqsadida Filipinning Manila shaxrida tashkil etilgan. Bank hukumat va xususiy korxonalarga kredit beradi. Kredit loyiha qiymatining 25% idan yoki 75 mln. AQSh dollaridan oshmagan holda beriladi. Xar bir loyiha uchun garov talab etadi. O'zbekiston OTB ga 1995 yilda Markaziy Osiyoda 15-chi, a'zo mamlakatlar ichida 22-chi bo'lib a'zo bo'lgan.

Bugungi kunda respublikamizda kredit shaklida amal qilayotgan chet el va xalqaro molyaviy tashkilotlar investisiyalarining 33,6 %i OTB ga to'g'ri kelmoqda. Bankning mablag'lari asosan ikki yo'nalishda - maxsus fond orqali va oddiy fond orqali beriladi. Maxsus fond mablag'lari kam rivojlangan a'zo mamlakatlarga imtiyozli kredit berish va texnik yordam ko'rsatishga yo'naltirilsa, oddiy fond mablag'lari tijorat yo'nalishidagi kreditlar yuqori foiz stavkasi bilan 10-15 yilga beriladi.

13. Osiyo taraqqiyot banki bilan O'zbekistonning kredit munosabatlari.

OTBning O'zbekistonga ajratgan qarzlari muddati asosan 25 yilga mo'ljallangan bo'lib ularni 5 yili imtiyozli davrni tashkil etadi.

OTB tomonidan respublikamizga ajratilgan kredit mablag'lari 2005 yilni 1 yanvar holatiga jami 19 loyiha bo'yicha 859,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

OTB ning 2004-2006 yillardagi dasturiga ko'ra respublikamizga har yili 100-150 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratildi. 2006 yilga kelib OTBning O'zbekistonga bergan qarzi 21 loyixa bo'yicha 914,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Ular jumlasiga Toshkent poligraf kombinati, «Ma'naviyat», «O'zbekiston», «Sharq» poligraf konserni, Yangi yo'l kitob fabrikasi, Toshkent traktor zavodi,

Amu-zang kanallarini irrigasiya tizimini qayta qurish, don ekinlari unumdorligini oshirish, kredit uyushmalarini takomillashtirish, kichik biznes va ta'limni rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilgan.

OTB ni 2010 yil 1-4 may kunlari Toshkentda o'tkazilgan 43-yillik yig'ilishida O'zbekiston bilan 1,14 mlrd. AQSH dollarida shartnomasi tuzildi va u o'tgan 15 yillik kredit hamkorligidan ikki marta ko'p.

Umuman, 2013 yilning 1 yanvar holatiga OTB tomonidan respublikamizgako'rsatilgan kredit yordami 47 loyiha bo'yicha 3518,9 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Ushbu loyihalar ichida transport va aloqa 33,26 foizni, energetika 23,3 foizni, 11 foizni suv ta'minoti, sanitariya va chiqindilarni boshqarish, 9,82 foizi qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar, ta'lim 8,26 foizni, sanoat va savdo(4,97), moliya (1,99), sog'liqni saqlash, umumovqatlanish va ijtimoiy himoya(1,14), huquq, iqtisodiy boshqarish, davlat siyosati (0,59) hamda ko'p sektorli zayomlar 5,69 foizni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda OTB tashabbusi bilan Osiyoda 3 ming MBt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalari qurilishi boshlangan. Mazkur tashabbus doirasida O'zbekiston va OTB Samarqand viloyatida 100 MBt quvvatga ega fotoelektrik stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirishga kirishilgan. Mazkur stansiya mintaqamizda bu yonalishdagi ilk stansiya bo'ladi. Ushbu stansiyaning loyiha qiymati 310 million AQSh dollarini tashkil etadi va uni 110 million dollarini (35%) imtiyozli kredit sifatida OTB tomonidan qoplanadi. Stansiyaning 2016 yildan ishga tushishi rejalashtirilgan.

Umuman, respublikamiz hududida shunday quyosh elektr stansiyalaridan yan 5 tasini qurish mo'ljallangan.

14. Islom taraqqiyot banki (ITB). Islom taraqqiyot banki (ITB) 1974 yilning 12 avgustida tashkil etilib, 1975 yildan faoliyat ko'rsatmoqda. Bankning asosiy maqsadi islom konferensiyasi tashkilotiga a'zo davlatlar taraqqiyotiga shariat prinsiplariga asoslanib xizmat kursatish.

ITB ning kreditlari eng past foizlarda (yillik 5 – 6 % , chunki Qur'on so'xdurlik bilan shug'ullanishni taqiqlaydi) bo'lib undan kelgan daromad faqat xarajatlarni qoplashni ko'zda tutadi. Kreditlar 15 – 20 yilga berilib, 3 – 5 yildan qaytarila boshlanadi.

O'zbekiston ITB ga 2003 yil 2 sentyabrda uning Olma – ota shahrida o'tgan boshqaruv kengashining 28-yig'ilishida 55 a'zo sifatida qabul qilingan.

ITB O'zbekistonga transport kommunikasiyalari, energetika, umumiy infrato'zilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes subyektlarini taraqqiy ettirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi bilan ITB o'rtasida 2011-2013 yillarga mo'ljallangan uch yillik Dasturni amalga oshirishga doir hamkorlik to'g'risida Memorandum imzolandi. Unda infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini ko'paytirish va umumiy qiymati 655,5 mln. dollarni tashkil etgan 11

ta loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan. Shu davrda ITB kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ushbu loyihalar doirasida 15mln. dolla-
rajratgan.

Qishloq tumanlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ITB O'zbekistonda qo'llab-quvvatlab kelayotgan asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bugungi kun-
da bank tomonidan ma'qullangan loyihalar umumiy hajmining 18 foizini tash-
kil qilmoqda. Qishloq tumanlarida infratuzilma va qishloq xo'jaligi sohasidagi
loyihalarga qo'shimcha ravishda bank qishloq aholisining turmush darajasi
hamda farovonligini yaxshilashda muhim o'rin tutadigan ta'lim va sog'likni
saqlash sohasidagi loyihalarni ham moliyalashtirmoqda. Ta'limga oid loyiha-
larda chekka qishloq tumanlarida 28 ta maktab (ayni paytda ularning 15 tasi
faoliyat ko'rsatmoqda) va beshta kasb – hunar kollejni qurish ko'zda tutilgan.

11.2 Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari

1 – topshiriq

Quyidagilarni xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tegishli turlariga ajrating.

T/r	Yozuvlar mazmuni	XVJ	Jahon banki	YeT TB	OTB	ITB
1	Majlis o'tkazuvchi organ qaysi xalqaro tashkilotga tegishli					
2	Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki					
3	Manila shahrida qaysi xalqaro moliya- viy tashkilot joylashgan					
4	Fransiya Prezidentining tashabbusi bi- lan qaysi bank tashkil etilgan					
5	Xalqaro taraqqiyot uyushmasi					
6	Boshqaruv organi qaysi bankga tegishli					
7	1994 yilda Toshkentda qaysi bankning vakolatxonasi ochilgan					
8	Respublikamizda qaysi bank kreditlari investitsiyalarning uchdan bir qismini tashkil etadi					
9	Mintaqalar bo'yicha rahbarlikni amalga oshiruvchi organ					
10	Investitsion munozaralarni boshqarishn- ing xalqaro markazi					

11	2003 yilning mayida Toshkentda qaysi bankning bank boshqaruvchilarining yillik yig'ilishi o'tkazildi					
12	Xalqaro taraqqiyot uyushmasi					
13	Amu-zang irrigatsiya tizimini qayta qurishga qaysi bank kreditlaridan foydalanilgan					
14	Ijro etuvchi organ qaysi bankga tegishli					
15	Xalqaro moliya korporatsiyasi					
16	Qaysi bank bilan dastlabki kredit liniyasi Respublikamiz Prezidenti safari vaqtida imzolangan					
17	Investitsiyalarni kafolatlashning ko'p tomonli agentligi					
18	Brutton-Vuds xalqaro valyuta-moliya konferensiya qarori asosida qaysi xalqaro moliyaviy tashkilotlar tuzilgan					
19	Maxsus fond va oddiy fond bo'yicha beriladigan kreditlar qaysi bankga tegishli					
20	Zaxira pozitsiyasi chegarasidagi va yuqori zaxira ulushiga beriladigan kreditlar qaysi xalqaro moliyaviy tashkilotga tegishli					
21	Xalqaro lizing operatsiyalri bilan qaysi xalqaro moliyaviy tashkilot shug'ullanadi					
22	Qaysi xalqaro moliyaviy tashkilotlar BMT ning maxsus muassasasi hisoblanadi					
23	Qaysi xalqaro moliyaviy tashkilot tarkibiga mamlakatlarning moliya vazirlari kiradi					

24	Qaysi xalqaro bank eng past foizlarda kredit beradi					
25	Qaysi xalqaro bank quyosh foto elektr stansiyasi qurilishiga kreditlar ajratgan					
26	Qaysi xalqaro bank boshqaruv kengashining 28-yig'ilishida respublikamiz a'zolikka qabul qilingan					

2-topshiriq

Mustaqil ish bo'yicha quyidagi testlarni yeching

1. Xalqaro valyuta jamg'armasining rahbar organlari?

- Deportament, boshqaruv kengashi, direktorat, pravleniya
- Deportament, direktorat, boshqaruv kengashi, umumiy yig'ilish
- Deportament, direktorat, boshqaruv kengashi, boshqaruv qo'mitasi
- Deportament, boshqaruv kengashi, direktorat, yuqori kvotaga ega bo'lgan a'zolar yig'ilishi

2. Jahon bankining tarkibi?

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), investitsiyalarni kafolatlashning ko'p tarmoqli agentligi (IKKTA), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB)
- (XTTB), (XMK), (IKKTA), xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)
- (XTTB), (XMK), (IKKTA), Yevropa investitsiya bank (YeIB)
- (XTTB), (XMK), (IKKTA), xalqaro taraqqiyot uyushmasi

3. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining tashkil bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi, O'zbekistonni unga a'zo bo'lish va uning yillik yig'ilishi Toshkentda o'tishi sanalari?

- 1990, 1991, 1992, 2003
- 1990, 1991, 1992, 2002
- 1991, 1992, 1994, 2000
- 1992, 1993, 1996, 2004

4. Xalqaro valyuta jamg'armasining tashkil bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi, O'zbekistonni unga a'zo bo'lish sanalari va uning a'zolarining soni?

- 1944, 1947, 1991, 59

- b) 1943, 1945, 1994, 155
- c) 1945, 1957, 1993, 158
- d) 1944, 1947, 1992, 181

5. Xalqaro valyuta jamg'armasi kreditlarining turlari?

- a) Zaxira pozitsiyasi chegarasidagi, kam taraqqiy etgan mamlakatlarga
- b) Zaxira pozitsiyasi chegarasidagi, yuqori zaxira ulushiga beriladigan
- c) Yuqori zaxira ulushiga beriladigan, capital qo'ymaga beriladigan
- d) Qisqa muddatli va uzoq muddatli

6. Islom taraqqiyot bankini tashkil bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi, unga O'zbekistonni a'zo bo'lish sanalari?

- a) 1974, 1975, 2003
- b) 1973, 1974, 2005
- c) 1975, 1976, 2006
- d) 1976, 1977, 2005

7. XVJ ni qachondan boshlab ilk bor ayol rahbar boshqaradi?

- a) 2011 yil 14 may
- b) 1944 yil 16 oktabr
- c) 1947 yil 8 aprel
- d) 2011 yil 5 iyul

8. Valyuta siyosatining asosiy elementlari?

- a) Valyuta intervensiyasi, svop operatsiyalari, devolvatsiya, revolvatsiya, valyutaviy cheklash
- b) Valyuta intervensiyasi, svop operatsiyalari, devolvatsiya, valyuta kotirovkasi
- c) Valyuta intervensiyasi, svop operatsiyalari, devolvatsiya, rasmiy kotirovka
- d) Valyuta intervensiyasi, bozor kotirovkasi, devolvatsiya, valyutaviy cheklash

9. OTB ga O'zbekiston qachon a'zo bo'lgan?

- a) 1966
- b) 1977
- c) 1995
- d) 1964

10. Xalqaro lizing munosabatlarida qaysi moliyaviy tashkilot yetakchi o'rinni egallaydi?

- a) Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki
- b) Xalqaro moliya korporatsiyasi

- c) Xalqaro rivojlanish uyushmasi
- d) Investitsiyalarni kafolatlashning ko'p tarmoqli agentligi

11. Respublikamizni asosan qaysi banki tomonidan xalqaro taraqqiyot uyushmasining liniylaridan foydalanilgan?

- a) Asakabank
- b) Ipoteka bank
- c) Hamkorbank
- d) Kapital bank

12. XTTB va XTU tomonidan 2013 yilda ajratilgan kreditlarning necha foizi qishloq xo'jaligi zimmasiga to'g'ri keladi?

- a) 8
- b) 12
- c) 5
- d) 14

13. OTB tomonidan respublikamizga ko'rsatilgan kredit yordamining necha foizi qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslardan foydalanishga to'g'ri keladi?

- a) 11
- b) 23
- c) 9,8
- d) 5

14. OTB boshqaruvchilar kengashining Toshkentda bo'lib o'tgan nechanchi yilgi yig'ilishida quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishilgan?

- a) 2001
- b) 2010
- c) 2004
- d) 2013

15. OTB yordamida Samarqand viloyatida qurilishi boshlangan ilk fotoelektrik stansiya xarajatini necha foizi OTB kreditlari hisobidan qoplanadi?

- a) 35
- b) 40
- c) 25
- d) 50

Foydalanilgan adabiyotlar.

I. Asosiy

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 2008 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. T. 2014 y.
3. Markaziy bank to'g'risida Qonun. T. 2002 y.
4. Banklar va bank faoliyati to'g'risida Qonun. T. 1996 y.
5. Valyutani tartibga solish to'g'risida Qonun. T. 2003 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. T. 2008 y.
7. Fermer xo'jligi to'g'risida Qonun. T. 2004 y.
8. Kredit uyushmalari to'g'risida Qonun. T. 2002 y.
9. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida Qonun. T. 2003 y.
10. Bank siri to'g'risida Qonun. T. 2003 y.
11. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksi. T. 1997 y.
12. „Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy – xuquqiy bazasi to'g'risida Qonun.
13. Sud xujjatlari va boshqa organlar xujjatlarini ijro etish to'g'risida Qonun.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 24 yanvardagi „To'lov tizimini va o'zaro xisob-kitoblar tizimini mustaxkamlash to'g'risida“ gi Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 martdagi „Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish mas'uliyatini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida“ gi Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 maydagi „Makrokreditbank aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida“ gi Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 21 noyabrbrdagi „Ish xaqi, pensiyalar, stependiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida“ gi Farmoni.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi „Bank tizimining moliyaviy Barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora – tadbirlarito'g'risida“ gi Qarori.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi „Banklarni kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investatsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora – tadbirlari to'g'risida“ gi Qarori.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrbrdagi PQ-1438-sonli „2011- 2015 yillarda Respublika moliya- bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish xamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida“gi Qarori.

21. Karimov.I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish , modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifalarimizdir. Xalq so'zi , 2015 yil 17 – yanvar.
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 15-avgustdagi „ Tashqi Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida “ gi Qarori.
23. Maxsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. T. 2003 y.
24. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz xisob-kitoblar to'g'risida Nizom. T. 2013 y.
25. Abdullayev Yo. Qoraliyev T. Pul. T. 1996 y.
26. Abdullayev Yo. Boboqulov T. Ktedit. T. 1996 y.
27. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. T. 2000 y.
28. O'lmasov A, Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T. 2006 y.
29. Rashidov. O. Yu.va boshqalar Pul, kredit va banklar. T. 2011 y.
30. Qodirov. A. Ekonomicheskaya teoriya. T. 1999 g.

II-Qo'shimcha.

31. Xolboyev D. Pul muomalasi, kredit va moliya, Samarqand. 2008 y.
32. Xolboyev D. Pul, kredit va banklar. Samarqand. 2014 y.
33. Abaturov V. i dr. Yevropeyskiy bank rekonstruksii I razvitiya: steli i programmi deyatelnosti. J. EO. 2003 g., № 3.4
34. Abdullayeva S. Banklarto'lovqobilyatining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. BPK. 2013 y 9-son.\
35. Абдуллаев А . Новые подходы базельского комитета в обеспечении ликвидности коммерческого банка Узбекистана. УИА журн . 2014 й 5 – сон 90 – 93 бетлар.
36. Aliqoriyev O . Milliy tijorat banklarining rivojlanish konsepsiyasi. Jurn. BPK , 2013 y . 7 – son , 17 – 20 betlar.
37. Boltayev T. Valyuta kursi dinamikasi. J. BPK. 2005 y. № 10
38. Boboqulov T . Inflyatsiya ko'p omilli jarayon sifatida . BPK jurn . 2013 y, 9 – son , 39 – 42 betlar.
39. Dodiye F.O'. O'zbekiston bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi. J. Iqtisod va moliya. 2013 y. 8-son.
40. Lombardlarga birlamchi kredit reytinglari. BA. 2013 y. 47-son.
41. Mustafayev Z. Tijorat banklarida investitsion kredit berish siyosati J. UIA. 2003 y. 5-son.
42. Mirzaxadjayev S. Lizing-generator modernizatsii. J. EO 2013 g. № 8

43. Mullajonov F. Barqaror bank tizimi – mamlakat iqtisodiyotining mustahkam tayanchidir . jurn . BPK , 2014 y . 1 – son 4 – 13 betlar.
44. Мухторова Д . Эволюция требований Базельских нормативов по банковскому надзору . журн . БПК .2014 . № 2 стр 37 - 43
45. Normurodov X. O`zbekistonda pul muomalasi va bank tizimi shakllanishi tarixidan. BPK. 2001 y. 8-9 sonlar.
46. Pul-kredit soxasidagi mavjud vaziyat va monetar siyosatning 2014 yilga mo`ljallangan asosiy yo`nalishlari. Bank axborotnomasi. 2014 y 2-son.
47. Rajabov A .Tijorat banklarining samarali xamkorligi – O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2014 y . 5 – son 40 – 42 betlar.
48. Rajabov A. Xitoy taraqqiyot banki va uning O`zbekiston banklari bilan xamkorligi. BPK jurn . 2014 y. 9 – son , 4 – 8 bet.
49. Maxmudov O` . Markaziy bankning xisob – kitoblar kliring tizimi – davr talabi . BPKjurn . 2014 y . 7 – son 4 – 9 betlar.
50. Xasanov Sh. Elektronniy banking: Mirovoy opit i yego primeneniye v Uzbekistane. Jurn PKB , № 7 str . 24 – 31.
51. Solixova N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida O`zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan xamkorlik yo`nalishlari. BPK. 2013 y. 7-son.
52. Sattorov B. Zamonaviy to`lov tizimini izchil rivojlantirish : pul muomala-si barqarorligida muxim ahamiyatga ega bo`lmoqda . BPK jurn. 2014y, 9 – son, 61 - 64 betlar.
53. So`ngi iqrar. Bank axborotnomasi xaftaligi 2014 y . 45 – son 12 – noyabr 2014 y . 11bet.
54. Ўрмонова Н. Банковская система как фактор обеспечения развития предпринимательства . БПК . 2014 г журн № 9 29 – 32 стр.
55. Xudoyberdiyev O. Tangalar tarixdan so`zlaydi. BPK. 2009 y. 3-son.
56. Xodjaqulova S. ABR i Uzbekistan: plodotvornoy sotrudnichestvo. BPK. 2013 g. № 4
57. Internet saytlari:
 - A) [www.e – paryment.net.rw](http://www.e-payement.net.rw) – 17k istoriya razvitiya platyojnix sistem Ros-sii, Ukraini I Belorussii.
 - B) www.bamm.rw – 21 k Banki i dengi.
 - V) [ee.tfi.uz/pdf/bit 2 b](http://ee.tfi.uz/pdf/bit2b) – uz k pdb O`zbekiston mustaqilligining birinchi yilla-rida pul muomalasi va kredit.
 - G) [www. Kredit 24.ru/](http://www.kredit24.ru/) - 20 K Pomosh v oformlenii bankovskix kreditov.
 - D) [Credr. Info/Index . Html](#) – 13 K Sushnost, funksii I struktura kreditnoy sistemi.
 - E) [www. Credit 5:ru/](http://www.credit5.ru/)-60 K Voprosi I kreditovaniya v Rossii.
 - J) [http://www..bamm.ru/page ipo, php? Cod==msb-list](http://www.bamm.ru/pageipo.php?Cod==msb-list) Kredit dlya malogo biznesa.

- Z) [http:// www.cbu.uz/uz/payment sys/pay sysiit dev questions.htm](http://www.cbu.uz/uz/payment%20sys/pay%20sys%20dev%20questions.htm) – razvitiye kartochnix system v Respublike.
- I) www.bank.uz Vsyo ob uslugax predostavlyamix kommercheskimi bankami RUZ.
- K) www.nbu.uz Nasionalniy bank.
- L) www.uzse.uz Respublikanskaya fondovaya birja „Toshkent”
- M) www.allbanks.ru Vsyo o bankax stran bivshego SSSR.
- H) www.o-dengah.ru Vsyo o dengax.
- O) www.finansist.pp.ru Vsyo o dengax, vkladax, kreditax.
- P) [www. economica-upravlenie.ru](http://www.economica-upravlenie.ru) Vsyo o finansax I kredite.
- S) [www. biznes info . uz .](http://www.biznesinfo.uz) [www. cbu . uz.](http://www.cbu.uz)

Mundarija

Kirish.....	3
1 – Mavzu :, Pul , kredit va banklar “ fanining predmeti va vazifalari . Pulning mohiyati , zarurligi va funksiyalari.	
1.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	4
1.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	6
2 – Mavzu :Pul aylanishi va pul muomalasi.	
2.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	10
2.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	14
3 - Mavzu :Pul tizimi va pul nazariyalari.	
3.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	22
3.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	23
4 – Mavzu :Inflyatsiya va uning turlari. Pulni barqarorligini ta`minlash yo`llari.	
4.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	28
4.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	30
5 – Mavzu :Kreditning mohiyati. Zarurligi va funksiyalari. Kreditning turlariva shakllari.	
5.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	33
5.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	37
6 – Mavzu :Banklarni kelib chiqishi va bank tizimi . Markaziy bank va uning funksiyalari.	
6.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	44
6.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	49
7 - Mavzu : Tijorat banklari , ularning funksiyalari va o`zlashtirish bo`yicha manbalar.	
7.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	53
7.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	57

8 – Mavzu :Nobank kredit tashkilotlari va ularni turlari.

8.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	61
8.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	63

9 – Mavzu : Kredit tizimi va uning barqarorligiga ta`sir etuvchi omillar.

9.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	67
9.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	70

10 – Mavzu :Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solishmasalalari .

10. 1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	73
10. 2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	78

11 – Mavzu :Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning turlari .

11.1 Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar va ularni o`zlashtirish bo`yicha manbalar.....	82
11.2 Amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ish topshiriqlari.....	89

Foydalanilgan adabiyotlar.....	94
--------------------------------	----

